

O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim vazirligi

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika
Instituti.

Seytnazarov Mansur Maxset o'g'li

Bitiruv malakaviy ishi

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYOLLARGA OID
DAVLAT SIYOSATI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI**

Ilmiy rahbar:

p.f.n., dotsent T. Qudaybergenova

Nukus - 2016

Bitiruvchi talaba Seytnazarov Mansur Maxset o'g'lining "O'zbekiston Respublikasining ayollarga oid davlat siyosati va uning huquqiy asoslari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasining 2016- yili «___»_____ kungi ___- sonli bayonnomasi asosida davlat attestasiya komissiyasiga himoya qilishga tavsiya qilindi.

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"
kafedra mudiri: A.Embergenov

Bitiruvchi talaba Seytnazarov Mansur Maxset o'g'lining "O'zbekiston Respublikasining ayollarga oid davlat siyosati va uning huquqiy asoslari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi 2016- yili «___» _____ kungi institut rektorining ___ - sonli buyrug'i bilan davlat attestasiya komissiyasiga himoyaga yuborildi.

Davlat attestasiya komissiyasi qarori bilan Seytnazarov Mansur Maxset o'g'lining bitiruv malakaviy ishiga _____ ball qoyildi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYOLLARGA OID DAVLAT SIYOSATI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

REJA:

KIRISH

I-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYOLLARGA OID DAVLAT
SIYOSATI

1.1. Ayol huquqlari tushunchasi

1. 2. O'zbekiston Respublikasining ayol huquqlariga oid davlat siyosati

II - BOB. O'ZBEKISTONDA XOTIN – QIZLAR HUQUQLARINING
TA'MINLANISHINING HUQUQIY ASOSLARI

2.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ayol huquqlarining muhofaza
qilinishi

2.2.Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy sohalardagi huquqlari va uning
ta'minlanishi

2. 3. Xotin – qizlarning ijtimoiy – iqtisodiy sohalardagi huquqlari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ILOVALAR

*Ayolni ulug‘lamoq–oilani, Vatanni, hayotni
ulug‘lamoq demakdir.*

I. Karimov.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ayollar huquqlari inson huquqlarining tarkibiy va ajralmas qismi bo'lib, ularning jinsiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda maxsus xalqaro va milliy hujjatlarda belgilab qo'yilgan huquqlaridir. Ayollarning huquqlari bo'linmas bo'lib, alohida huquqlar qatori fuqaroviy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy huquqlarni ham o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda xotin-qizlarga munosabat, ularning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, Prezident Islom Karimov: «Insoniyat tarixi shundan guvohlik beradiki, ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Ayniqsa, ayollarga sharqona ehtirom va e'zoz biz uchun ibratli merosdir. Bejiz emaski, SHarqda ayolni farishtaga qiyos qilishadi. CHunki farishtalar Alloh taolo yaratgan eng pok, eng begunoh zotlardir», – deb ta'kidlaydi.

Ana shunday yondashuv tufayli amaldagi qonun hujjatlarimizda barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi haqidagi qoidalar rivojlantirildi.

Ishning tuzilishi: Kirish, ikki bob, beshta paragraph, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar tizimidan iborat.

Bitiruv ishining maqsad va vazifalari: O'zbekiston Respublikasining ayol huquqlariga oid davlat siyosati ta'minlanishini takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv ishining vazifalari:

- Ayol huquqlari tushunchasini ilmiy tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasining ayol huquqlariga oid davlat siyosati sohasidagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ayol huquqlarining muhofaza qilinishi tahlil qilish va tasniflash;

- Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligini ko'rsatib berish;
- Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklari sohasidagi muammolarni ilmiy tahlil qilish va ularni hal etish bo'yicha aniq taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish;

Ilmiy yangiligi: Ayol huquqlarining O'zbekistonda ta'minlanishini tahlil qilib, ba'zi taklif va mulohazalar kiritildi.

Bitiruv ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv ishi natijalaridan ilmiy tadqiqot ishlari, yuridik va pedagogik ta'lim tizimidagi o'quv jarayonida foydalanish mumkin.

I-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYOLLARGA OID DAVLAT SIYOSATI

1.1. Ayol huquqlari tushunchasi

Ayollar har bir oilaning guli, shamchirog’idir. Hadisi SHariflarda ham Hazrati Muhammad (s.a.v.) “Jannat onalar oyog’I ostidadir” deb ta’kidlaganlar.

Shunday ekan, onani, ayolni e’zozlash, uni hurmat qilish, huquq va erkinliklarini ta’minlash hamma vaqt dolzarbligini yo’qotmagan. Xotin-qizlar va erkaklar tengligi – ularning teng huquq va majburiyatlar sohibi ekanligini anglatadi. Xotin-qizlar va erkaklar tengligi – demokratiyaning muhim elementidir. Bu tenglik fuqarolarning davlat, qonun va sud oldida rasmiy tan olinadigan huquqiy tengligi bo’lib, u har bir fuqaroning qaysi jinsga mansubligidan qat’i nazar, teng huquq va erkinlikka ega ekanligini anglatadi.

Mamlakatimizda ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik milliy miqyosda shakllantirilmoqda. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, xususan, O‘zbekiston Konstitutsiyasida o‘z aksini topgan. Konstitutsiyaning 18-moddasida: «O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart», – deyilgan bo‘lsa, 46-moddasida esa yanada aniq qilib: «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar», – deb, gender tengligi prinsipi mustahkamlab qo‘yilgan.

Konstitutsiyaning bu normalari boshqa qonunlar va qonunosti hujjatlari bilan takomillashtirib borilmoqda hamda ayollar huquqlarini himoya qilish vakolatiga ega bo‘lgan mexanizmlar tashkil etilmoqda.

BMT Ustavining 55-moddasida: «Inson huquqlariga, kishilarning irqi, jinsi, tili va dinidagi tafovutlaridan qat’i nazar, hammaning asosiy erkinliklariga yalpi hurmat bilan qarash va ularga rioya qilishga ko‘maklashadi», – deb ta’kidlash bilan mazkur tashkilotning asosiy faoliyati yo‘nalishlaridan biri inson huquqlari, shu jumladan xotin-qizlarning huquqlariga rioya qilinishi muammosi bilan bog‘liq

ekanligi e'tirof etiladi. Bunday huquqlarning universal tusga egaligi bu muammoni dunyodagi barcha mamlakatlar uchun ham umumiy ahamiyatga molik qilib qo'yadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsi yasining e'lon qilinganiga 60 yildan oshgan bo'lsada, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish muammolari inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning keskin masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu masala nafaqat jamiyat, balki, huquqshunos olimlar va huquqni muhofaza qiluvchilar tomonidan doimiy ravishda muhokama qilinadi va baholanadi. Xotin-qizlar huquqlari masalasi, aniqrog'i xotin-qizlar hamda erkaklarning qonun oldida tengligi masalasi mazkur sohada inson huquqlarining ta'minlanishiga baho berishda muhim tamoyillardan biri hisoblanadi.

Ishning o'rganilganlik darajasi. Ayollar huquqlarining ayrim masalalari muammolar bo'yicha SH. M. Asyanov, F. X. Bakaeva, M. YU. Gasanov, B. I. Ismoilov, M. M. Inakova va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Xalqaro miqyosda xotin-qizlar huquqlari harakati ikki asosiy bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich bu diskriminatsiyaga qarshi kurash bo'lib, ushbu harakat natijasida 1979 yili Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya qabul qilingan. Unda sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi, jamiyatdagi munosabatlar, siyosiy hayotdagi ishtirok va oiladagi teng huquqlilikka oid masalalar o'z ifodasini topgan. Lekin Konvensiyada oiladagi zo'ravonlikka doir qoidalar aks etmagan.

1980 yillarda boshlangan ikkinchi bosqich, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik masalalarini qamrab oldi va bu muammoning oldini olishni muhim vazifa, deb belgiladi. BMTning Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi deklaratsiyasining qabul qilinishi va BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi huzurida xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik masalalari bo'yicha Maxsus ma'ruzachi lavozimining joriy qilinishi ushbu harakatning muhim natijalaridandir.

Xotin-qizlar huquqlari masalalari, ularning davlat va jamiyat oldidagi tengligi ko'pincha muayyan mamlakat, xalq yoki millatning o'ziga xos

xususiyatlariga borib taqaladi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'рни va roliga nisbatan shakllangan aqidalar asosidagi munosabatlar qonunan mustahkamlangan va huquqiy normalar bilan belgilangan emas, biroq ularga o'zgartirish amri mahol bo'lgan, «mangu» masala sifatida qaraladi.

Aynan aqidalar, qotib qolgan qarashlar, fikrlar va munosabatlar xotin-qizlarni itoatkor, mute, «gah» desa qo'lga qo'nadigan», ikkinchi darajali odam degan tushunchani yaratib, hayotning barcha sohalarida ularning huquqlari buzilishiga, hatto, ularga nisbatan zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishiga olib kelmoqda.

Inson huquqlari inson va davlat o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, davlat zimmasiga bu huquqlarning ta'minlanishi va himoya qilinishi borasidagi javobgarlikni yuklaydi.

Gap xotin-qizlar huquqlari haqida borganida aybdorni erkaklar o'rtasidan yoki patriarxal ruhdagi jamiyatdan qidirish xohishi paydo bo'ladi. Albatta, bu fikrda ham jon bor, lekin, xotin-qizlar huquqlarining tabiati, ularning universal va rad etib bo'lmas huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi ekanligini ham unutmash kerak. Aynan shu o'rinda davlatning xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan barcha turdagi kamsitishlar va barcha turdagi zo'ravonliklarning oldini olish va jazolash borasidagi javobgarligi va ishtiroki yaqqol namoyon bo'ladi. Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi deklaratsiyada qat'iy belgilab qo'yilganidek, davlatlardan xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik sababchilarini jazolash, aniqlash va oldini olishda tegishli choralar ko'rish talab qilinadi. SHunga binoan, davlatlarga jamiyatda shakllangan qarashlardan, ya'ni shaxsiy uy-joylarning daxlsizligi va oilaviy hayotga aralashmaslikdan voz kechib, oiladagi zo'ravonlikning oldini olish uchun ularga aralashish talab qilinadi. Bu borada davlatlar xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik qilayotgan shaxslarni aniqlashni ta'minlaydigan qonunchilik doirasini va huquqni qo'llash strategiyasini yaratishlari kerak. Hukumatlar huquqni muhofaza qilish organlari va tibbiyot xodimlari uchun

xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka oid masalalar bo‘yicha tegishli yo‘l-yo‘riqlar berishi kerak. Bundan tashqari, hukumatlar xotin-qizlarning kamsitilishiga olib keladigan odatlarni bartaraf etish to‘g‘risida keng ommani xabardor qilish bo‘yicha ta‘lim dasturlarini amalga oshirishlari lozim. Inson huquqlari sohasida huquqiy nazariya va amaliyot uchun yangilik hisoblangan bu g‘oyalar xususiy shaxslar tomonidan sodir etiladigan harakatlar uchun davlatning javobgarlik doktrinasini takomillashtiradi

«*Gender tengligi*» *tushunchasi*. Ayollar huquqlarini ta‘minlash sohasida turli mamlakatlarda bo‘lgani kabi, mamlakatimizda ham bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sifatida e‘tirof etilayotgan *gender tengligi* – turli jins vakillarining, davlat va jamiyat boshqaruvi ishlarida ishtirok etish, iqtisodiy va ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish, mehnatga teng, haq olish va shu kabi masalalarda teng huquqli bo‘lishini anglatadi.

Gender tengligi masalasini hal etish jamiyat uchun ayollar huquqlarini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki jamiyat, turmushning barcha sohalarida, ya‘ni iqtisodiyotda, siyosatda, ijtimoiy hayotda jamiyat barcha a‘zolarining teng imkoniyatlari, shu jumladan, ayollarning erkaklar bilan teng imkoniyatlari ta‘minlab berilmas ekan, mazkur jamiyatda ayollar huquqlarini ta‘minlashga oid vazifalarni ijobiy hal etib bo‘lmaydi. Xotin-qizlar huquqlari uchun javobgarlikni va javobgarlar doirasini belgilash uchun bir tomonlama feministik yondashuvdan yiroqlashib, gender tengligi mezonlaridan foydalanish lozim. Tenglik inson huquqlarining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra, davlat o‘z hududida yashaydigan har bir insonning qonun oldidagi tengligini ta‘minlashi kerak. Gender tengligi erkaklar va xotin-qizlarning nafaqat jamiyatdagi ijtimoiy roli va imkoniyatlarining tengligini, balki, birinchi navbatda, ularning jamiyat a‘zolari, fuqarolari, yashovchilari sifatida davlat oldidagi tengliklarini nazarda tutadi. Davlat odamlarga ularning jinsiy mansubligiga qarab munosabatda bo‘lmasligi kerak, bunday huquqqa ega emas. Bundan tashqari, davlat jamiyatda, uning vakillari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda muayyan jinsni kamsitadigan odat va an‘analarga rioya etilishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Zamon davlatdan barcha vazifalar va harakatlarga gender yondashuvini singdirishni talab qiladi. Bunday yondashuvning uslubi — hayotning turli sohalarini gender bo'yicha tahlil qilishdan iboratdir. Bu uslub jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida turli davlat dasturlari, qonunchilik yoki siyosiy kursning xotin-qizlar va erkaklar turmushiga ta'sirini baholash imkonini beradi.

Jinslar tengligi tushunchasini to'liq ochib berishga monelik qiladigan to'siqlarning mavjudligiga quyidagilar asosiy sabab bo'ladi:

1. Asosiy e'tibor jinslarning de-yure tengligiga qaratiladi va bu esa xotin-qizlarni har doim ham kamsitishning barcha shakllaridan ham samarali himoya qila olmaydi. Qonunchilik aktlarini ishlab chiqish jarayonida ko'pincha jamiyat faoliyatining umumiy jihatlari hisobga olinmaydi;

2. Xotin-qizlar qo'mitalari o'z vazifalarini amalga oshirishda belgilangan maqsadlarga erishish imkonini bera olmaydigan tuzilmalar doirasida faoliyat ko'rsatadilar. Bu qo'mitalar yuqori darajadagi davlat xizmatchilari tomonidan boshqarilib, nomenklatura bilan uzviy aloqada bo'lsada, ularning faoliyati va vakolatlari muayyan ma'noda cheklangandir. Fuqarolar hayotiga oid qarorlar qabul qilish sohasidagi ta'siri me'yorlangan.

3. Xotin-qizlarning qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki etarlicha emas, jinslar o'rtasidagi tenglikni ilgari surish muammosi hali saqlanib qolmoqda. Ko'rilayotgan choralarning ko'pchiligi asosan xotin-qizlarning o'ziga xos ehtiyojlariga qaratilib, tengsizlikni keltirib chiqarayotgan qator sabablarni chetlab o'tmoqda.

SHuning uchun ham xalqaro maydonda ayollar huquqlarini himoya qilish maqsadida, keyingi yarim asr mobaynida turli xalqaro anjumanlar o'tkazilib, ayollar huquqlariga oid muammolar o'rganilmoqda, ayollarning jamiyatdagi ishtirokini yanada kengroq ta'minlash hamda ularning barcha huquqlariga amal qilishga qaratilgan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Ana shunday taklif va tavsiyalar asosida, bajarishi lozim bo'lgan xalqaro shartnomalar tayyorlanib, davlatlar tomonidan imzolanmoqda. Bularga 1967 yilgi Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi deklaratsiya, 1979 yilgi Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya,

Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya, 1993 yilgi Ayollarga nisbatan zo'ravonliklar va jabr-zulmlarga barham berish to'g'risidagi BMT deklaratsiyasi, shuningdek, Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlarning qator hujjatlarini misol keltirish mumkin.

Ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlar qatori ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro mexanizmlar ham shakllanmoqda. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya asosida BMTning Xotin-qizlarni kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mitasi ham tashkil etilgan.

Ayollar huquqlarini maxsus himoya qilishga qaratilgan yuqorida qayd etilib o'tilgan xalqaro va milliy huquqiy asos hamda mexanizmlar bugungi kunda ayollar huquqlari tushunchasi hamda bu tushuncha asosida inson huquqlarining alohida sohasi shakllanganligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda davlatlar o'z qonun hujjatlarida kishilarning qandaydir asoslar bo'yicha kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik prinsipini mustahkamlashga harakat qiladilar. O'zbekiston Respublikasida qonunchilikni takomillashtirishning butun jarayoni mana shu prinsipga asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yuqorida qayd etilganidek, barcha fuqarolarning tengligi belgilab qo'yilganligini, Konstitutsiyaning 18, 46, 63, 64, 65, 66-moddalari bilan bevosita ayollar huquqlarining konstitutsiyaviy kafolati mustahkamlanganligini, xalqaro hujjatlarda bo'lgani kabi, ichki qonunchilikda ham jins belgisi bo'yicha kamsitmaslik to'g'risidagi qoida birinchi o'ringa chiqarilganligini ta'kidlash o'rinlidir.

O'zbek zaminida qadim-qadimdan ayollar hamisha e'zozlab kelingan. Ularga oilani ham, jamiyatni ham birlashtirib, fayz kiritadigan, xonadonlarni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan muqaddas zot, deb qaralgan. Mustaqillikka erishilgandan keyin ham ushbu an'analarga sodiq qolgan holda, bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda 1998 yilning «Oila yili», 1999 yilning «Ayollar yili», 2001 yilning «Ona va bola yili», 2012 yilning «Mustahkam oila yili», 2014 yilning «Sog'lom bola yili», 2016 yilning «Sog'lom ona va bola yili»deb e'lon qilinib, maxsus Davlat dasturlarining qabul qilinishi mamlakatimizda bu borada aniq maqsadga

yo‘naltirilgan izchil siyosat olib borilayotganining yana bir belgisidir.

O‘zbekistonda ayollar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha izchil va tizimli siyosat olib borilmoqda. Xususan quyidagilar bu siyosatning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

birinchidan, ayollar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish, onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qonun hujjatlari bajarilishini ta‘minlash hamda bu boradagi huquqiy asosni yanada takomillashtirish choralarini ko‘rish;

ikkinchidan, ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ishlarning ahvolini doimiy ravishda va kompleks monitoring qilish, ayollarning oiladagi, jamiyatdagi hamda jamoat va davlat ishlarini boshqarishdagi rolini oshirish;

uchinchidan, ayollarning bandligini ta‘minlash yuzasidan samarali choralar ko‘rish va amalga oshirish, ularni ishga joylashtirishda har tomonlama yordam ko‘rsatish, ayollar o‘rtasida, ayniqsa, qishloq joylarda tadbirkorlikning turli shakllarini rivojlantirish;

to‘rtinchidan, ayollarning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ayollar nodavlat notijorat tashkilotlarining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun ko‘maklashish.

«Ayollar bilan erkaklarning teng huquqligini ta‘minlash uchun davlat keng miqyosda qo‘shimcha tadbirlarni amalga oshirmoqda. Davlat ayollarga bilim olish, kasb egallash, mehnat qilish, unga haq olish, siyosiy hayotda faol ishtirok etish uchun erkaklar bilan teng imkoniyatlar yaratish bilan birga, ayollarning oiladagi o‘rni, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, ularga mehnat qilishda, sog‘lig‘ini mustahkamlashda yaxshi sharoitlar va imtiyozlar yaratib berishi ham zarurdir. CHunki teng imkoniyat va qo‘shimcha sharoit, imtiyozlar o‘rnatish bilangina ayollarning teng huquqliligi ta‘minlanishi mumkin. Bundan tashqari, oiladagi ishlarning asosiy qismi ayollar zimmasiga tushadi, buning natijasida ayollar o‘zlarining to‘la huquqliligi imkoniyatidan foydalana olmaydilar. SHuning uchun davlat ayollar bilan erkaklarning tengligini e‘lon qilar ekan, buni ta‘minlash uchun

ayollarni qo‘shimcha ravishda moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish choralarini ko‘rmoqda»¹.

O‘zbekistonda ayollar huquqlarini kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik xotin-qizlarni mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishga jalb qilish uchun huquqiy asos yaratilgan. Inson huquqlariga oid 100 ga yaqin qonunlarimizda ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligi e‘tirof etilgan. SHu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 30 avgustdagi «Bir xil qiymatga ega bo‘lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag‘batlantirish to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida»gi 493-sonli hamda «Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilish haqida»gi 501-sonli qarorlari qabul qilingan.

Ayollarning shaxsiy huquq va erkinliklari. Bular ayollarning ajralmas huquqlari sifatida e‘tirof etiladi hamda boshqa toifadagi huquqlarga ega bo‘lishda birlamchi huquqlar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7- bobi shaxsiy huquq va erkinliklarga bag‘ishlangan bo‘lib, bu bobda erkaklar qatori ayollarga ham tenglik taalluqli bo‘lgan yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, aybsizlik prezumpsiyasi, ya‘ni jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmasligi, sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta‘minlab berilishi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi huquqi, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqi, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurish huquqi, fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqi, vijdon erkinligi huquqi kabi masalalar o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 apreldagi «Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga qo‘shimcha 228¹-modda kiritildi. Unda uch

¹ *Қаюмов. Р. Ўзбекистон Республикасининг конституциявий ҳуқуқи. – Т.: «Адолат», 1998. – Б. 181.*

yoshga to'lmagan bolalari bor, byudjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollarga mehnatga to'lanadigan haqni kamaytirmasdan, ish vaqtining haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilandi hamda kamida yigirma yillik ish staji bo'lgan ayollar ellik to'rt yoshga to'lganda pensiya olish huquqiga ega bo'ldilar.

Siyosiy huquqlar tushunchasi ayollarning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok eta olish huquqini anglatadi. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Asosiy qonunning 8-bobida ijtimoiy faollikni mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqi, ularning kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi, ariza, taklif va shikoyat bilan murojaat qilish huquqi kabi ayollarimizning siyosiy huquqlari ham o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarga beriladigan e'tibor milliy qonunchiligimizda rivojlantirib borilmoqda. Jumladan, 2003 yil 29 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi (yangi tahrirda) qonunida, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka qo'yiladigan nomzodlarning 30 foizi xotin-qizlardan bo'lishi mustahkamlangan.

O'zbekistonda xotin-qizlarga nisbatan oiladagi zo'ravonlik oila ichida yoki yaqin insonlar orasida sodir etiladigan jinoyat sifatida qoralanadi. Ayollarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar, xususan, Jinoyat kodeksining 118, 119, 121-moddalarida nazarda tutilgan jinsiy erkinlikka qarshi sodir etilgan jinoyatlar, 128, 129, 131-moddalarida nazarda tutilgan oila, yoshlarga va axloqqa qarshi sodir etilgan jinoyatlar uchun tegishli javobgarlik belgilab qo'yilgan. Mamlakat mintaqalarida zo'ravonlik jabrdiydalari bo'lgan ayollarga yordam ko'rsatish bo'yicha ayollar markazlari, maxsus tuzilmalar, salomatlik markazlari singari va boshqa ko'plab ijtimoiy-psixologik markazlar faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 5-bobida belgilab qo‘yilganidek, er-xotinning mulkiy munosabatlari, ularning me‘yorlari, mulkning qonuniy tizimi, shartnomaviy mulk rejimini tartibga solish orqali ta‘minlanadi. Qonuniy rejim deganda, er-xotinning birgalikdagi mulklari tushuniladi. Er-xotinning birgalikdagi mulkiga nikohlanuvdan keyin yig‘ilgan mulklari kiradi. Bu mulklar ularning har ikkisiga tegishli va ular ana shu mulkka egalik qilishga, undan foydalanishga va uni tasarruf etish huquqiga egadirlar. Bu mulklar kimning nomiga olinganligi yoki ro‘yxatdan o‘tkazilganligi, erning (xotinning) xotinning (erning) nomiga mablag‘ o‘tkazganligi huquqiy ahamiyatga ega emas. Nikohdan keyin uy-ro‘zg‘or ishlari va bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullangan, kasal yoxud qari ota-onaga qaragan, shuningdek boshqa bir sabablarga ko‘ra mustaqil pul topmagan er yoki xotin ham mulkka egalik qilish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 30-moddasining uchinchi qismida nikoh shartnomasi albatta yozma shaklda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlangan bo‘lishi lozimligi nazarda tutilgan. Agar bunday tartibga rioya etilmasa, nikoh shartnomasi haqiqiy emas, deb topiladi.

Mabodo, shartnomada har bir mulk egasining ulushi belgilanmagan bo‘lsa, ulardan har biri umumiy mol-mulkka nisbatan teng huquqli hisoblanadi, demak ulushlar ham teng bo‘linishi kerak. Er-xotinning umumiy mulkida har birining ulushi belgilangan bo‘lishi mumkin.

Nikoh shartnomasi barcha fuqarolik kelishuvlariga mos keladi. Ular er-xotindan har birining ma‘lum huquqiy natijaga erishuviga yo‘naltirilgan xohish-istaklari inobatga olinishi talab etiladi. Nikoh shartnomasi er-xotin huquqlari va salohiyatini, ularning o‘z huquqlarini himoya qilib sudga murojaat qilish huquqlarini, o‘z farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini cheklamasligi, shuningdek unga er-xotindan birini og‘ir vaziyatga yoki tang holatga solib qo‘yadigan shartlar kiritilmasligi lozim.

Nikoh shartnomasi, yuqorida aytilganlardan aniq-ravshan ko‘rinib turganidek, ayollarga katta huquqlar beradi.

Respublika Xotin-qizlar qo‘mitasining, xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining

ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlar hamda yoshlarning ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish borasida olib borayotgan ishlari samaradorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 mayda «O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. Unda mazkur qo'mita va uning joylardagi bo'linmalarining eng muhim vazifalari va yo'nalishlari zamon talablariga javob beradigan tarzda belgilandi.

Xotin-qizlar qo'mitasi xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, hudud xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining xotin-qizlarning sotsial, ijtimoiy-siyosiy va mehnat faolligini oshirish, ularning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yanada yaxshilash va ehtiyojlarini to'laroq qondirish bo'yicha puxta va samarali faoliyatini ta'minlash, ularning oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi rolini kuchaytirish, xotin-qizlarning diniy ta'limiga ko'maklashish, ularning ma'naviy, intellektual va kasbiy o'sishini ta'minlaydi.

1. 2. O‘zbekiston Respublikasining ayol huquqlariga oid davlat siyosati

O‘zbekiston BMTning ayollar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan barcha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi va ma‘qullaydi. O‘zbekistonda ayollarning, ularning millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy ahvoli hamda turar joyidan qat‘i nazar, barcha huquqlarini ta‘minlash masalalariga katta e‘tibor qaratadi. Davlat tomonidan ham shahar, ham qishloq joylarida yashaydigan ayollarning turmushini yaxshilashga mutanosib yondashuv ta‘minlanmoqda.

Davlat mustaqilligining ilk kunidan boshlab mamlakatimiz ayollarning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoya qilinishini, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish masalasini davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilab olgan.

O‘zbekistonda ayollar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha izchil va tizimli siyosatning asosiy yo‘nalishlari qo‘yidagilar hisoblanadi:

➤ birinchidan, ayollar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qonun hujjatlarini bajarilishini ta‘minlash hamda huquqiy asosni yanada takomillashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

➤ ikkinchidan, ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ishlarning ahvolini doimiy ravishda va kompleks monitoring qilish, ularning oilada, jamiyatda hamda jamoat va davlat ishlarini boshqarishda rolini oshirish;

➤ uchinchidan, ayollarning bandligini ta‘minlash bo‘yicha samarali choralar qabul qilish va amalga oshirish, ularni ishga joylashtirish uchun har tomonlama yordam ko‘rsatish, ayollar orasida, ayniqsa, qishloq joylarida tadbirkorlikning turli shakllarini rivojlantirish;

➤ to‘rtinchidan, ayollarning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ayollar nodavlat

notijorat tashkilotlarining mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun ko'maklashish.

Ayollar holatining huquqiy mexanizmini tadrijiy rivojlanishi 1995 yil BMTning Xotin qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi 1979 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan konvensiyasiga O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib a'zo bo'ldi.

O'zbekistonning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalkaro pakt, Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfuruslikdan foydalanilishiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya (1949 y.), Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1952 y.), Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar Platformasi (1995 y.), shuningdek, Qiynoqlarga solishga va muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi konvensiya (1984 y.), Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya (1960 y.), Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1990 y.), Xalqaro mehnat tashkilotining Bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag'batlantirish to'g'risidagi konvensiyasi №100 (1951 y.), Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi 103-konvensiyasi (1956 y.), Mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlar to'g'risidagi konvensiyasi №111 (1958 y.), , Ish bilan ta'minlash siyosati to'g'risidagi konvensiyasi №122 (1964 y), Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh №138 (1973 y.) va Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiyasini №182 (1999 y.) ratifikatsiya qilish milliy darajada ayollar huquqlarini himoya qilishning xalqaro standartlarini implementatsiya qilish bo'yicha qonunchilikka va davlat organlari faoliyatining amaliyotiga aniq choralarni ishlab chiqish uchun zarur xalqaro-huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston «Mingyillik deklaratsiyasi»ni imzolagan davlat sifatida Deklaratsiyaning maqsadlarini davlatni rivojlantirish dasturlariga kiritish va

Mingyillik taraqqiyot maqsadlarini 2015 yilga qadar amalga oshirish grafigiga rioya qilish bo'yicha o'z zimmasiga ma'suliyat oldi.

O'zbekiston Mingyillik taraqqiyot maqsadlarini amalga oshirishda birinchi navbatda, qashshoqlikni kamaytirish, odamlarning hayotini yaxshilash, jamiyatning barqaror rivojlanishida ayollarning rolini oshirish, erkaklar va ayollar tengligini ta'minlashga qaratilgan choralarni izchil amalga oshirmoqda.

Mamlakatda ta'lim, gender tenglik, sog'liqni saqlash va boshqa masalalarga nisbatan jiddiy natijalarga erishilgan, bu esa ayollar farovonligi to'g'risidagi g'amxo'rlik bilan bevosita bog'liq. Bu barcha choralar, birinchi navbatda, Konvensiya, Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar Platformasi, shuningdek BMT Bosh Assambleyasi 23 maxsus sessiyasining "Ayollar 2000 yilda: erkaklar va ayollar o'rtasida tenglik, XXI asrda rivojlanishi va tinchlik" yakuniy hujjatining qoidalarini so'zsiz bajarishga qaratilgan.

1995 yilda BMTning Ayollar ahvoli bo'yicha IV Umumjahon konferensiyasida qabul qilingan Pekin harakatlar platformasi alohida muhim hisoblanadi. Uning muqaddimasi va 12 bo'limi ayollar ahvolini global darajada baholash va butun dunyoda ayollar huquqlarini amalga oshirish bo'yicha strategiyalar, siyosat va choralar tadqiqot etilgan ayollar huquqlari bo'yicha eng to'liq dastur hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda mamlakatni tubdan yangilash va modernizatsiyalashga, davlat, jamiyat va shaxs o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan qonunlar qabul qilindi, ular aynan:

- "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" (2007 yil 15 yanvar);
- "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (2007 yil 03 yanvar);
- "Homiylilik to'g'risida" (2007 yil 02 may);
- "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni

- “O‘lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” (2007 yil 11 iyul).
- “Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” (2007 yil 11 iyul);
- “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” (2008 yil 7 yanvar);
- “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” (2008 yil 11 iyul);
- “Aholi o‘rtasida mikronutrient etishmasligi profilaktikasi to‘g‘risida” (2010 yil 7 iyun);
- “Sudlar, prokurorlar, tergovchilar va surishtiruv organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorligi tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida” (2010 yil 28 sentyabr);
- “Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida” (2010 yil 29 sentabr);
- "Davlat hokimiyati vakillik organlariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining navbatdagi saylovi to‘g‘risida" (2012 yil 09 aprel);
- "Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida" (2012 yil 26 aprel).
- "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida" (2012 yil 24 sentyabr).
- "Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida" (2013 yil 22 aprel).

Qabul qilingan qonun hujjatlari doirasida O‘zbekiston Hukumati, vazirliklari va idoralari, nodavlat tashkilotlari tomonidan ayollar huquqlarini qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish va ularning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy va

madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishlarini ta'minlash uchun tizimli va izchil ish olib borilmoqda.

2004 yili O'zbekiston xotin-qizlarini qollab-quvvatlash to'g'risida Prezident farmoni chiqdi. 22ta qonun ayol-qizlarga oid qonunlardir. Oliy Majlisda Qonunchilik Palatasining har 4tasidan biri, Senatda har 3tasidan biri ayollardir.

Har yili qabul qilinadigan va amalga oshiriladigan Davlat dasturlarining ahamiyati katta:

- 2008 y. – YOshlar yili;
- 2009 y. – Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili;
- 2010 y. – Barkamol avlod yili;
- 2011 y. – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili;
- 2012 y. – Mustahkam oila yili;
- 2013 y. – Obod turmush yili.
- 2016 y. _Sog'lom ona va bola yili

Ularni amalga oshirish maqsadida quyidagi normativ-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi:

- «Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezidentning 2009 yil 13 apreldagi qarori.
- «2009 - 2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga etkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida» gi Prezidentning 2009 yil 1 iyuldagi karori.
- «Nogironlarni tibbiy-ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya qilish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 23 dekabrda qabul qilingan qarori.
- «Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlarini demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish sohasida

amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida» Prezidentning 2011 yil 14 yanvardagi farmoyishi.

- «Aholini ish bilan ta'minlash va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun tashkilotlarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo'llash, shuningdek mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun tashkilotlar faoliyatini to'xtatib qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 5 yanvardagi qarori.
- «O'zbekistonda BMTning ming yilligini rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 yanvardagi qarori.
- «Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2011 Vazirlar Mahkamasining yil 28 fevraldagi qarori.
- «Aholi sonining tanlama statistik kuzatuvini tayyorlash va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida» Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 28 fevraldagi qarori.
- «Adliya organlarida maxsus "ishonch telefoni" tashkil etish to'g'risida» Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 19 martdagi qonuni.
- «Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 10 martdagi qarori.
- «O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to'g'risidagi Konvensiyani hamda Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi Konvensiyani 2012 - 2013 yillarda amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida» Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 martdagi qarori.
- «Oilalarning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 7 apreldagi qarori va boshqalar.

Umuman olganda, O‘zbekistonda ayollar huquqlarini ta‘minlash tashkiliy – huquqiy mexanizmlarni va ularni amaliyotda amalga oshirish tartibotlarini yanada kuchaytirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining bu boradagi sa‘y-harakatlarini birlashtirish, ayollar huquqlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha aholining huquqiy madaniyatini oshirishga bog‘liq.

O‘zbekiston Konvensiya doirasida o‘z zimmasiga olgan barcha majburiyatlarini izchil bajarishda davom etadi va kelajakda ham BMTning ayollar manfaatlariga oid barcha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Mamlakatimiz ayollar ahvolini yaxshilash bo‘yicha BMTning Ayollarga nisbatan kamsitishga barham berish bo‘yicha qo‘mitasi va boshqa xalqaro tashkilotlari bilan ochiq va konstruktiv hamkorlik qilishga tayyordir.

II - BOB. O'ZBEKISTONDA XOTIN – QIZLAR HUQUQLARINING TA'MINLANISHINING HUQUQIY ASOSLARI

2.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ayol huquqlarining muhofaza qilinishi

Mustaqillik yillarida xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalik muhofazasini ta'minlash, ayollarning jamiyat hayotidagi mavqeini oshirish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, barcha sohada xotin-qizlarga berilgan imtiyozlar, yaratilgan shart-sharoitlarni yanada kuchaytirish masalalari davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Buning isboti sifatida keyingi vaqtlarda e'lon qilingan Prezident Farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari, Davlat dasturlari, bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar, fuqarolik, oila, mehnat, tibbiyot sohasiga oid, bundan tashqari protsessual huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarida xotin-qizlarga berilgan ma'lum ma'nodagi imtiyozlar o'z ifodasini topgan.

Bu borada Muhtaram Prezidentimiz deyarli barcha ma'ruzalarida ayollarga bo'lgan e'tibor haqida bejizga ta'kidlamaganlar. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida "... hayotimizni yanada sog'lom va obod qilish, avvalo ayol zotining jamiyatimizdagi o'rni va nufuzini, ijtimoiy faolligini yanada oshirish, xotin-qizlarning turli jabha va yo'nalishlarda qilayotgan ishlarini munosib baholash, har qaysi xonadonda uy-bekasi bo'lmish opa-singillarimizning og'irini engil qilish asnosida turmushimizni farovon etish bilan uzviy va chambarchas bog'liqdir".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida: "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar", deb belgilab qo'yilishi ham ayollarga bo'lgan alohida e'tibor, ayollar huquq va manfaatlarining himoyasini ta'minlash ifodasidir. Bu tenglik ifodasi erkaklar va ayollarning barcha sohadagi huquq va manfaatlariga tegishli sanaladi. Ushbu normani kengroq izohlash maqsadida ayrim xorijiy davlatlarning Konstitutsiyalariga murojaat qilishga to'g'ri keldi. Masalan, Turkmaniston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida " Ayollar va erkaklar teng huquqlarga ega. Ushbu normani buzgan shaxslar qonunda

belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar”, deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, Moldova Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida “Ona, bola va yoshlar davlat himoyasida. Ona va bola alohida yordam va himoyaga muhtoj” ligi belgilangan.

Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida “ Erkaklar va ayollar teng huquqli”dir. Ukraina Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasida “Ayol va erkaklar teng huquqligi quyidagilar orqali ta‘minlanadi: “ayol va erkak teng tarzda jamoat ishlarida, siyosiy va madaniy faoliyatda ishtirok etadi; ta‘lim olishda va maxsus kasbiy tayyorgarlikdan o‘tishda, mehnatiga yarasha taqdirlanishda, mehnatni muhofaza qilishda, sog‘liqni saqlash, pensiya ta‘minotida imtiyozlar olishda, onalik va bolalik muhofazasini ta‘minlashda, onalarga imtiyozlar yaratishda, ularni moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda, homilador va bolali ayollarga imtiyozlar yaratishda tenglik ta‘minlanishi” mustahkamlangan. SHuningdek, ushbu davlat Konstitutsiyasining 44-moddasida esa “ Har bir shaxs qulay, xavfsiz, tibbiy jihatdan tegishli talablarga javob beradigan mehnat sharoitida ishlashga, mehnatiga yarasha qonunda belgilangan haq olishga haqli. Ayollar va voyaga etmaganlar mehnatidan zararli ishlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi” degan mazmundagi qoidalar berilgan.

Ayolning oiladagi o‘rni va mavqei nimadan iborat, oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida xotin-qizlarga qanday imtiyozlar yaratilgan.

Ayolning oiladagi o‘rni va mavqei beqiyos, chunki u oila, farzandlari va ular orqali jamiyat hayotida ishtirok etadi, uning biologik, psixologik, tibbiy xususiyatlari oilada vujudga keladi, shakllanadi va rivojlanadi.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida birinchi marta milliy xususiyatlarimiz e‘tibori va ramzi sifatida Konstitutsiyaning 14 bobi (63-66-moddalar)“Oila” deb nomlanishi ham bejizga emas.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida “Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi” deb ko‘rsatilgan bo‘lib, bu masalaning xorijiy davlatlarning Konstitutsiyalari bilan qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining “Inson va

fuqarolarning huquq va erkinliklari” deb nomlangan 2-bobiga tegishli 38-modda (3 qismdan iborat)sida onalik , bolalik va oila davlat himoyasida ekanligi, bolalar va ularning tarbiyasi haqida ota-onalarning majburiyati haqida ko‘rsatilgan.

Konstitutsiyamiz qonun oldida hammaning tengligini ta’minlaydigan, har bir insonning o‘z fikrini emin-erkin ifoda qilishda, o‘z xaq–huquqlarini talab etishda, burch va ma’suliyatlarini bajarishda bamisoli qalqon bo‘lib xizmat qilishi kerak. O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilib, ayollar manfaatlarini, onalik va bolalikni muhofaza qilish, davlat, jamiyat qurilish va madaniy qurilishda, jamiyatni ma’naviy va demokratik yangilashda ularning rolini oshirishning xuquqiy asoslarini takomillashtirish borasida ko‘lab ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 19-moddasida oilada er-xotinning teng huquqliligi, 21-moddasida bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarida ham teng huquqli ekanligi, 22-moddasida esa er-xotinning har biri mashg‘ulot turi, kasb va turli holda yashash joyini tanlashda erkindir deb belgilab quyilgan. Bunday misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Ta’kidlash joizki, ayollarimiz, opa-singillarimizning mehnatini engillashtirish, ularning salohiyatidan faol ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy soxalarida, bolalar tarbiyasida yanada samarali foydalanish maqsadida aniq chora tadbirlar amalga oshirilgani buning yorqin isbotidir.

Prezidentimiz Islom Karimov “YUksak ma’naviyat–engilmas kuch” asarida ta’kidlaganidek, har qaysi millatni o‘zida xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz oilaning o‘rni beqiyosdir. Xalqimiz azaldan oilaga muqaddas dargoh, shaxs kamolotining beshigi sifatiga qaraydi. Binobarin, inson oila bag‘rida dunyoda keladi. Hayot haqidagi ilk tushunchalari shu erda paydo bo‘ladi. Murg‘ak qalbdagi yaxshi fazilatlar, ezgu g‘oya va maqsadlar ham oiladagi ma’naviy muhit tufayli uyg‘onadi.

YUrtimizda jamiyatni asosiy bug‘ini hisoblangan oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, uning xuquqiy asoslarini yaratishda davlat siyosatining ustuvor

vazifalaridan biri sifatida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamiz Konstitutsiyasida "Oila" alohida bob sifatida kiritilgan. Bularning barchasi ayol, uning oiladagi o'rni va jamiyatdagi mavqeini qonuniy xuquqlarini mustahkamlash maqsadida qilinayotgan ustuvor siyosatimizdir. O'tgan yili hayotga tadbiiq etilgan "Mustaxkam oila yili" Davlat dasturi asosida ham, jumladan, oilalarga g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning xuquqiy va ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, sog'lom va mustahkam oilani qaror toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi ezgu maqsadlar mujassamlashganini ko'ramiz.

SHu o'rinda bir jihatga e'tibor qaratish lozim, o'tgan yili yosh oilalarni har tomonlama qo'llab –quvvatlash borasidagi ishlar davom ettirilib, ularga uy-joy qurish rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun banklar tomonidan ippoteka kreditlari ajratildi. YOki kasb-hunar kollejlarini bitirgan yosh mutaxassislarga tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari uchun imtiyozli kreditlar berilgani, buning 70 foizini yosh tadbirkor qizlar tashkil etgani, ular turli faoliyat turlarini boshlaganligini e'tirof etmoq lozim. Demak, yosh qizlar mehnat va boshqa xuquqlarini anglab etayaptiki, xayotda mustaqil ishni boshlayaptilar.

Oilaning mustahkam bo'lishi va unda har tomonlama sog'lom farzandlar kamol topishi ko'p jihatdan er-xotinning salomatligi, oila qurishga tayyorligi zimmasidagi burch va majburiyatni nechog'li anglab etishiga bog'liq. SHu bois yigit-qizlarning nikoh va oila xaqidagi tushunchalarini boyitish er-xotin o'rtasidagi munosabatlarning xuquqiy asoslari, farzand ta'lim-tarbiyasiga oid bilimlarni mustahkamlash eng muhim vazifalaridan sanaladi. Bu borada bo'lajak kelin quyovlar joylardagi FHDYO idoralari qoshida tashkil etilgan "Oila Dorilfununi"da saboq olmoqdalar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ham "YOsh oila quruvchilar maktabi" tashkil etilgani bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Amalga oshirilayotgan bu kabi sa'y-harakatlar tufayli keyingi yillarda oilalarni buzilib ketishi, yolg'iz onalik, otalikni belgilash, erta turmushga chiqish holatlari kamaymoqda.

2.2. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy sohalardagi huquqlari va uning ta'minlanishi

BMT Bosh assambleyasining Nyu-Yorkda «Xotin-qizlar 2000 yilda: erkaklar va xotin - qizlar o'rtasidagi tenglik, XXI asrdagi rivojlanish va tinchlik» mavzuida o'tgan 23 - Maxsus sessiyasida BMTning Bosh kotibi Kofi Annan shunday degan edi: «Xotin-qizlar oldida turgan muammolar kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rishni taqozo etadi...

Insoniyat yarmi kamsitilayotgan bir paytda maqsadlarimizga erishib bo'lmaydi».

Bosh kotib o'z ma'ruzasida yana shuni ta'kidladi: «Qayd etilgan barcha eski va yangi muammolar, aslida, biz yashab turgan murakkab va o'zaro bog'liq dunyoning bir bo'lagidir.

Ushbu muammolarni, xotin-qizlarni zulmga giriftor etish emas, balki ular uchun bu dunyo taklif etishi mumkin bo'lgan maqbul sharoitni yaratish orqaligina hal qilish mumkin. Bu, eng avvalo, xotin-qizlar ta'lim olishi va umumjahon iqtisodiyotida o'z o'rnini egallashi lozimligi bilan bog'liqdir».

Mamlakat Prezidenti Islom Karimov tomonidan ta'kidlanganidek, mamlakat oldida bu borada turgan muhim masalalardan biri — xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy mavqeini yanada oshirishdan iboratdir.

O'zbeistonda 13 millionga yaqin xotin-qiz istiqomat qiladi. Ulardan 60 foizi — qishloqda yashaydi va mehnatga layoqatli xotin-qizlarning qariyb 50 foizi ish bilan band.

2005 yilning yanvar oyidan boshlab parlamentdagi xotin-qizlar guruhi fuqarolik forumlari ishida faol ishtirok etib, parlament a'zolarining gender sezgirligini oshirish bo'yicha ish yuritmoqdalar, «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarga doir kafolatlar to'g'risida»gi qonunni qabul qilishni, shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan qonunchilikni isloh etish taklifi bilan chiqmoqdalar.

Hozir mamlakat parlamentining Qonunchilik palatasida xotin-qizlar 18 foizni, Senatida 15 foizni tashkil etadi. 2000 yilda ushbu raqam 8,2 foizdan oshmas edi.

O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish ularni o‘qitish va malakasini muttasil oshirib borish talab qilinadi. Ushbu maqsadga erishishda izchillik bilan amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi muhim omil bo‘lmoqda.

Bugungi kunda mamlakatdagi 64 ming tadbirkordan 20 foizdan ortig‘ini xotin-qizlar tashkil qiladi. Kichik va o‘rta korxonalariga mansub 8 ming xo‘jalik sub’ektini xotin-qizlar boshqarmoqda.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida xotin-qizlarning turmush darajasini yanada yuksaltirishga qaratilgan bir qator qonunlar va qonunosti aktlari qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasiga binoan «O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart».

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 46-moddasida jamiyatning barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 3-moddasida «Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar», deb alohida qayd etilgan. «Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar». (19-modda).

SHuningdek, Jinoyat kodeksi ham xotin-qizlar huquqlarini buzish yoki cheklashni taqiqlaydi. Masalan, 104, 105, 118, 119, 121-moddalarda badanga shikast etkazganlik uchun, nomusga tegish, xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo‘lgan ayolni jinsiy aloqa qilishga yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishga majbur etganlik uchun javobgarlik belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining 148-moddasiga muvofiq ayolni homiladorligi yoki yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, ishga olishdan

g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatganlik uchun ishga olish huquqiga ega mansabdor shaxslar eng kam ish haqining yigirma besh baravari miqdorida jarima to'lashga yoki uch yilgacha bo'lgan muddatga muayyan huquqlardan mahrum etish yohud ahloq tuzatish ishlariga — jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi hukumatga xotin-qizlarga doir siyosat masalalarida maslahatlar berib boradi. Qo'mitaning maqsadi xotin-qizlarni har tomonlama O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarga oid jamoat tashkilotlarining, sotsial, ijtimoiy-siyosiy va mehnat faolligini oshirish, huquqiy va iqtisodiy bilim darajasini yuksaltirish, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yanada yaxshilash va ehtiyojlarini to'laroq qondirish bo'yicha puxta va samarali faoliyatini ta'minlash, ularning oilada ma'naviy-ahloqiy muhitini shakl-

lantirishdagi rolini kuchaytirish, xotin-qizlarning ta'lim olishiga ko'maklashish, ularning ma'naviy, intellektual va professional o'sishini ta'minlashdir. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi quyidagi beshta sohadagi ustuvor dasturlarga alohida e'tibor qaratadi: xotin-qizlarning bandligi va iqtisodiy farovonligi, xotin-qizlarning reproduktiv sog'lig'i va reproduktiv huquqlarini himoya qilish;

xotin-qizlar va ular faolligi, ya'ni ularni rahbarlik lavozimlariga va qarorlar qabul qiladigan organlarga jalb qilish va ularning jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlash; xotin-qizlar va huquq, bunda xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etishga alohida ahamiyat berish; xotin-qizlar va ta'lim, bunda ayollar mahorati va vakolatini oshirishga e'tibor qaratish. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xotin-qizlarga doir muammolari bo'yicha tashkil qilinadigan xalqaro anjumanlardagi ishtiroki uchun ham mas'uldir.

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasining eng yirik xotin-qizlar tashkiloti bo‘lib, respublikaning barcha hududlarida o‘z bo‘limlariga ega.

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va bo‘limlarining roli quyidagilardan iborat:

➤ xotin-qizlar holatiga doir fikrlar va sharoitlarni aks ettiradigan siyosatni belgilash, ishlab chiqish va amalga oshirishda hukumat uchun asosli maslahatlar taqdim etish maqsadida hamkorlik qilish;

➤ xotin-qizlar muammolari bilan shug‘ullanadigan guruh, tashkilot, birlashmalar va xotin-qizlar nodavlat notijorat tashkilotlarining maslahatlari asosida xotin-qizlarning turli-tuman fikrlari ifodachisi bo‘lish;

➤ hukumat va xotin-qizlar sektori o‘rtasida axborot almashinuvi jarayonida vositachi sifatida faoliyat yuritish;

➤ tegishli sohalar uchun o‘tkaziladigan va tashkilotlar uchun qiziqish uyg‘otadigan siyosatni tahlil qilish;

➤ O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi hududiy bo‘limlarining vazifa va majburiyatlarining bajarilishini ta‘minlaydigan samarali boshqaruv mexanizmlarini

yaratish va qo‘llab-quvvatlash.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi davlat va jamoat tashkilotlari hamda NNTlari bilan hamkorlikda «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va erkinliklar kafolatlari to‘g‘risida»gi qonun loyihasini tayyorladi. Bu loyiha milliy va xalqaro ekspertizadan o‘tib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga ko‘rib chiqish uchun yuborildi.

«Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida»gi qonunning 7-moddasiga ko‘ra, davlat ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni qo‘shimcha kafolatlar bilan ta‘minlaydi.

Ko‘p bolali ayollarni va nogiron ayollarni kasanachilik mehnatiga jalb qilish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xotin-qizlarning qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari faoliyatidagi ishtiroki

Davlat hokimiyati uch bo'g'inga ega — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati.

Ularning har biri ahamiyatlidir, chunki ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlar jamiyat uchun juda muhim.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng o'tgan 55 yil davomida parlamenti bo'lgan suveren davlatlar soni etti baravar ko'paydi. Xotin-qiz parlamentariylar soni esa bu davrda bor-yo'g'i to'rt baravar oshdi. 1945 yili 26 ta parlament bo'lib, undagi xotin-qizlar soni 3 foizni tashkil qilgan. 1995 yilga kelib 176 parlament tashkil etilib, ularda ayollar 11,6 foizga, senatorlar orasida esa 9,4 foizga etdi. SHuni ta'kidlash kerakki, xotin-qiz-parlamentariylarning eng ko'p soni 1988 yilda kuzatildi, bunda ularning soni 14,8 foizni tashkil etgan.

Bu davrga kelib, dunyoda parlamentidagi xotin-qizlar soni 15 foizdan ortiqni tashkil qiladigan o'nlab davlatlar paydo bo'ldi. Ma'lumki, SHimoliy Evropa davlatlari parlamentida xotin-qizlar o'rta hisobda 40 foizni tashkil qiladi. SHuningdek, dunyoda xotin-qizlarning parlamentidagi ishtiroki ko'rsatkichi 20 foizdan oshgan 20 davlat mavjud.

Xotin-qiz-deputatlarning parlamentda va davlat hokimiyatining boshqa vakillik organlarida ishtirok etishi nafaqat ayollar uchun, balki jamiyat uchun ham muhimdir. Bu fikrning isbotiga ijtimoiy, jumladan siyosiy-huquqiy adabiyotda ham alohida e'tibor qaratilgan. Bunda gap, birinchi navbatda, xotin-qizlar va erkaklar uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan manfaatlardagi farqlar to'g'risida boradi. CHunonchi, ekologiya, bolalar himoyasi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqa masalalar xotin-qizlar uchun birinchi darajali bo'lib, erkaklarning doim ham e'tiborida bo'lavermaydi. Bu inson zahiralardan samarali foydalanish yo'llarini topish bilan ham bog'liq. CHunki ikkala jins vakillari turli tajriba, bilim va his-tuyg'ularga ega bo'lib, ularning turli qarashlarini inobatga olish davlatning muvofiqlashtirilgan siyosatini shakllantirish va olib borishda muhim omil bo'lishi mumkin.

Siyosiy qarorlar qabul qiladigan organlarda, avvalo, parlamentda xotin-qizlar sonining ortishi bevosita shu davlat saylov tizimining shakliga bog‘liq. Ko‘pchilik rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng asoslarda siyosiy qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatlarini amalga oshirishning eng qulay usullaridan biri proporsional saylov tizimini joriy etishdir. Bunda vakillik organidagi joylar turli partiyalardan yig‘ilgan ovozlar ro‘yxatiga mos ravishda taqsimlanadi. Xotin-qizlar uchun har bir hududdan bitta deputat saylanadigan majoritar saylov tizimi nisbatan samarasiz hisoblanadi.

Bunday holatning sababi oddiy. U jamiyat va huquqiy davlat tuzilishining demokratik asoslarini yaratishda ko‘ppartiyaviylikka asoslanishiga borib taqaladi. Bunda gender tengligini ta‘minlashda an‘anaviy rol ni so‘l partiyalar o‘ynaydi. Ular ko‘pchilik hollarda, birinchidan, ikkala jins vakillarining amaldagi teng huquqliligiga erishish tamoyillarini o‘z nizomlarida belgilaydi, ikkinchidan, xotin-qizlar partiyaga rahbarlik qilishi, saylovlarda o‘z nomzodlarini ko‘rsatishida kvotalar ajratadi.

G‘arbiy Germaniyada sotsial-demokratik partiya 1995 yildagi saylovlardan keyin nafaqat eng ko‘p sonli partiya («yashillardan» keyin), balki eng ko‘p xotin-qiz a‘zosi (27%) bo‘lgan partiya bo‘lib qolganining boisi ham shunda.

Mutaxassislar bunday sharoitda Bundestag so‘l partiyalari fraksiyalarida va joylardagi parlamentlarda xotin-qiz-deputatlar sonining ortganligini kuzatganlar.

Jahon tarixida ilk bor ayol kishi demokratiya yo‘li bilan davlat rahbari etib saylangan 1954 yildan (Vigdis Finnbogadottir, Islandiya prezidenti (1980–1996), jahonda konstitutsiyaga muvofiq davlat rahbari etib saylangan birinchi ayol hisoblanadi) to 2008 yilga qadar ushbu lavozimni atigi 27 nafar xotin-qiz egalladi, 1960 yildan (ayol kishi bosh vazir etib saylangan) 2008 yilgacha bosh vazir lavozimiga 42 nafar ayol tayinlandi yoki saylandi. Boz ustiga, ularning har beshinchisi o‘zining siyosiy mavqeida asosiy shaxs sifatida muayyan erkak bilan bog‘liq bo‘lgan. 1990 yilda BMTga a‘zo 159 davlatdan bor-yo‘g‘i 6 tasida bosh

vazir ayol kishi bo'lgan, 2008 yilda 9 nafar ayol davlat rahbari hisoblanadi (Argentina, Bangladesh, Gviana, Yangi Zelandiya, Irlandiya, Finlyandiya, Latviya, Hindiston, Germaniya, Chili va Sri-Lanka). 1990 yilda vazir lavozimining atigi 3,5 foizini ayollar egallagan bo'lsa, 1994 yilda bu ko'rsatkich 5,7 foizga oshdi. SHvetsiyada esa 1994 yilda o'tgan saylovdan keyin vazir-ayollar soni 33 foizdan 52 foizga ko'paydi.

Mahalliy hokimiyatlar xalqaro assotsiatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, AQSHda merlarning 23, Evropada 20 (SHvetsiyada 40 foiz, Gretsiyada 4 foiz), Kanadada 18, Afrikada kamida 5 va Lotin Amerikasida 4 foizini xotin-qizlar tashkil etadi.

BMTga a'zo 192 davlatdan 182 tasida parlament mavjud.

Dunyo parlamentlarining 9 tasida xotin-qiz-deputatlar yo'q, 173 mamlakat parlamentida ayollar vakila qilib ko'rsatilgan, shundan:

83 mamlakatda kvotalardan foydalanadi, yana 15 mamlakatda kvotalardan avval foydalanilgan yoki taklif etilgan.

Masulma Ol-Muborak, 57 yoshda. Quvayt tarixida hukumat a'zosi bo'lgan birinchi ayol — rejalashtirish va rivojlanish vaziri.

AQSHda saylovda o'zaro kelishgan holda ish yurituvchi xotin-qizlar tashkilotlari muayyan nomzodning gender masalalariga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib qo'llab-quvvatlash taktikasini (gender gap) qo'llaydilar. Ma'lumki, Bill Klintonning AQSH Prezidenti etib saylanishiga xotin-qizlar birdamligi muhim o'rin tutgan. Saylovdan keyin u AQSH tarixida birinchi marta chaqaloqni yoki oilaning kasal a'zolarini parvarishlash bo'yicha 12 haftalik ta'til berish to'g'risidagi qonunning Kongress tomonidan (Bush tomonidan ikki marta veto qo'yilganidan keyin) qabul qilinishiga erishdi. SHuningdek, davlatning yuqori lavozimlariga xotin-qizlardan misli ko'rilmagan darajada ko'p tayinladi.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi va «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi qonunlarida ikkala jins uchun ham teng

saylov andozalari belgilangan, erkaklar va xotin-qizlar saylov jarayonida teng huquqlidir.

Xotin-qizlar va erkaklarning amaldagi tengligi siyosiy, tashkiliy, moddiy, ijtimoiy - ahloqiy va huquqiy vositalaridan iborat kafolatlar tizimi orqali ta'minlanadi. Siyosiy kafolatlar — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan demokratik saylovlarning asosiy tamoyil va andozalaridir. Tashkiliy kafolatlar — jinsidan qat'i nazar barcha deputatlikka nomzodlar uchun saylovoldi kampaniyasini o'tkazishda hamkorlik ko'rsatishga doir qoidalardir. Ijtimoiy-ahloqiy kafolatlar — huquq va erkinliklarni to'g'ri tushunish hamda ularning xotin-qizlar va erkaklar tomonidan foydalanilishidir.

Respublika parlamenti tomonidan 2004 yilda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunning 22-moddasiga siyosiy partiyalar tomonidan mamlakat parlamenti deputatligiga ko'rsatilgan nomzodlarning kamida 30 foizi xotin-qizlardan iborat bo'lishi haqidagi qoida kiritilgan. Hozirgi kunda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi a'zolari orasida xotin-qizlar Qonunchilik palatasida 17,5, Senatda 15 foizni tashkil qiladi. Vakillik organlarida esa xotin-qizlar barcha deputatlarning viloyatlar miqyosida 12,5 foizini, tumanlarda 15 foizini, shaharlarda esa 18,1 foizini tashkil qiladi.

Biroq, ta'kidlash joizki, saylovlarda xotin-qizlar uchun maxsus kvotaning joriy etilishi O'zbekistonda oliy qonun chiqaruvchi organlar va mahalliy vakillik organlarida xotin-qizlarning vakilalikka oid masalalarini to'la echa olmaydi.

Gap bunday vakillik organlariga saylanish uchun qancha xotin-qiz tayyorlanganiga borib taqaladi. Amaliyot shundan dalolat beradiki, hatto oliy ma'lumotli xotin-qizlar ham saylov texnologiyalari, siyosatshunoslik, davlat huquqi va boshqaruvi, psixologiya singari qator sohalarda maxsus tayyorgarlikka ega emaslar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarning saylov kampaniyasidagi axborot va moliya resurslari saylovda ishtirok etadigan erkaklarnikiga nisbatan kam.

Afsuski, O'zbekistonda siyosiy partiyalar tomonidan nomzodi ko'rsatilgan xotin-qizlarni siyosiy partiyalar, xotin-qizlar NNTlari va xotin-qizlar elektorati

tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi hali etarlicha shakllanmagan. Siyosiy partiyalarda xotin-qiz etakchilarga nisbatan hurmat-e'tibor ko'rsatish madaniyati to'la qaror topmagan, siyosiy partiyalar tomonidan yaratilgan tizimlar doirasida rahbar lavozimlarga tavsiya etish amalda kutilgan darajada ish bermayotir.

Xotin-qizlarning parlament saylovida faol ishtirok etishiga monelik qiladigan sabablardan yana biri, asrlar davomida shakllangan «xotin kishi ro'zg'origa qarasin» qabilidagi aqidalar bo'lib, bunday qarashlar xotin-qizlarning deputatlikka nomzodlar safidan joy ololmasligiga avval-boshdan sabab bo'ladi.

Xotin-qizlarning ijro hokimiyati organlari faoliyatidagi ishtiroki

Ijro hokimiyatning o'ziga xos jihatlaridan biri shundan iboratki, uning asosida va faoliyat yuritishida mazkur organlarning vertikallik tamoyili va ushbu tamoyilga binoan bo'ysunishga amal qilingandagina ushbu hokimiyat samarali faoliyat ko'rsata oladi. Bunday talab har bir davlat uchun dolzarbdir. Ijro hokimiyati organlarida xotin-qizlarning roli va o'rni muammosi turli davlatlar aholi tushunchasida hukumat, shuningdek, muayyan vazirliklar boshida turgan xotin-qizlar va erkaklar shaxsi bilan bog'liqlik holda shakllanishining boisi ham shunda.

Hozir xotin-qizlar va erkaklarning ijro hokimiyati organlarida qarorlar qabul qilish jarayonidagi teng ishtiroki masalasi (kvota joriy etilmagan davlatlarda) haligacha hal qilingan emas.

Davlat boshqaruvida, ayniqsa, vazirliklar va boshqa ijro hokimiyati organlarida xotin-qizlarning kamligi haqida Pekinda o'tgan Xotin-qizlarning IV xalqaro konferensiyasi qarorlarida ham ko'p bor ta'kidlangan. Pekin Harakat platformasi hukumat va jamoat tashkilotlariga turli rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlar vakilliklari

sonini ko'paytirish jarayonini baholash va doimiy nazorat qilishni tavsiya etadi. Buning uchun hukumatning turli bosqichlarida band bo'lgan erkaklar va xotin-qizlar soni haqida yillik ma'lumotlarni berishni, barcha tayinlanadigan davlat lavozimlariga erkak va xotin-qizlarni teng asoslarda tavsiya qilishni ta'minlashni taklif etadi. O'zbekistonda keyingi paytlarda xotin-qizlarning ijro hokimiyati

organlaridagi sonini oshirishga qaratilgan izchil harakatlar amalga oshirilmoqda. Masalan, oxirgi paytda ijro hokimiyati organlarida rahbarlik lavozimlarini 15 foiz xotin-qiz egallagan, ya'ni:

Vazirlar Mahkamasida — 16,7 foiz; Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashida — 12,5 foiz; viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimi o'rinbosari lavozimida — 11,9 foiz.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining raisi ayni paytda Bosh vazirning o'rinbosari bo'lib, viloyat xotin-qizlar qo'mitalarining raislari tegishli hudud hokimlarining o'rinbosari hisoblanadilar. (14 viloyat, 219 tuman(shahar) hokimi o'rinbosarlari).

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda xotin-qizlarning ijro hokimiyati organlaridagi kamsionligining asosiy sababi quyidagilardan iborat:

- davlat organlarida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tamoyillari, xotin-qizlarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaydigan tamoyillar mustahkamlangan «Davlat xizmati to'g'risida»gi qonunning mavjud emasligi;
- xotin-qizlarning quyi lavozimlardan eng yuqori lavozimlargacha ko'tarilishini ta'minlaydigan omillar, mexanizm va vositalarning ishlab chiqilmaganligi;
- davlat boshqaruvi sohasida etakchi xotin-qiz etakchilarni tayyorlashning chuqur o'ylangan tizimining mavjud emasligi va h. k.

Unutmaslik lozimki, O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan xotin-qizlar talay qiyinchiliklarga duch keldilar: mehnat bozorida muayyan kamsitilishlar, raqobatbardoshlilik va kasb mahoratining pasayishi va boshqalar shular jumlasidandir. Xotin-qizlar daromadining nisbatan pastroqligi ularning jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy maqomlarining yanada ko'tarilishiga monelik qiladi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida erkaklar va xotin-qizlarning fikrini teng inobatga olishning foydali va ustuvor masala ekaniga oid ijtimoiy tasavvurini shakllantirishga qaratilgan

tushunchasini mustahkamlash borasidagi ishlar ham yanada samaraliroq yuritilmog‘i lozim.

Xotin-qizlarning sud organlari faoliyatidagi ishtiroki

Sud hokimiyatiga oid holatdagi muammo ikki xil sharoit bilan izohlanadi. Birinchidan, rivojlangan davlatlarda sudyalari va huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari eng ko‘p haq to‘lanadigan xizmatchilar jumlasidan joy olgan, shuning uchun bu sohada erkaklar bilan xotin-qizlar o‘rtasida ish joyi uchun raqobat kuchli. Ikkinchidan, qator davlatlarda (Isroil va musulmon davlatlarida) dinga asoslangan sudlar amal qiladi, ularda xotin-qizlarga odil sudlovni amalga oshirishi uchun imkoniyat berilmaydi.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning sud hokimiyati organlaridagi vakilligi ancha yuqori.

Masalan, Konstitutsiyaviy sud — 20 foiz, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida — 14,6 foiz, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudida, viloyat va Toshkent shahar sudlarida — 20,4 foiz, Oliy xo‘jalik sudida — 15,8 foiz va Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyat xo‘jalik sudlarida — 22,6 foiz xotin-qiz ishlaydi.

Sudya, advokat, prokuror, maslahatchi yurist va umuman yurist bo‘lib ishlash uchun maxsus ta‘lim olish kerak. SHu nuqtai nazardan huquqni shartli ravishda genderni nisbatan neytral mutaxassisliklar jumlasiga kiritish mumkin. Bu esa yuridik oliy o‘quv yurtlari va fakultetlariga kirayotgan yigit va qizlar sonining taxminan bir xil demakdir. Muammolar esa ishga kirish paytida vujudga keladi, chunki ko‘pchilik hollarda ishga kirish uchun mehnat staji kerak bo‘ladi, bundan tashqari qizlarning ona bo‘lish ehtimoli sababli ularga ishonarli xodim sifatida qaralmaydi. Bunga o‘xshash holatlar rivojlangan xorijiy davlatlarda ham ko‘p kuzatiladi.

Xotin-qizlarning sud va huquqni muhofaza qilish tizimidagi vakilliklari darajasini oshirish ko‘p jihatdan O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida», «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonunlarida xotin-qizlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan sudya va prokurorlarni tanlash va

tayinlash prinsiplarini mustahkamlashga, shuningdek xotin-qizlar uchun bu organlarda maxsus kvotaning ajratilishiga bog'liq.

Xotin-qizlarning qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki

Xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha Pekinda o'tgan IV Xalqaro konferensiya qarorlarida iqtisodiy qarorlarni qabul qilish jarayonida, jumladan, moliyaviy, byudjet, tijorat va boshqa turdagi iqtisodiy siyosatni, shuningdek soliq va ish haqini tartibga soladigan me'yorlar tizimiga doir siyosatni ishlab chiqishda xotin-qizlarning deyarli ishtirok etmasligi katta xavotir bilan ta'kidlangan edi. Qayd etilganlardan tashqari barcha korporatsiyalar, jumladan transmilliy korporatsiyalar tomonidan milliy qonunlar va kodekslar, ijtimoiy sug'urta sohasidagi me'yorlar, xalqaro bitimlar va konvensiyalarga amal qilishni ta'minlash; xotin-qizlarning siyosatga, iqtisodiyot va moliya vazirliklari tomonidan ishlab chiqilayotgan dasturlarga o'z hissalarini qo'shishi uchun yo'naltirilgan mexanizmlarni yaratish; makro va mikroiqtisodiy va ijtimoiy ishlab chiqarishda gender tahlili uslublaridan foydalanish va bu siyosatning oqibatlarini hisobga olish tavsiya qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatga oid tashabbuslar va ularni, jumladan, iqtisodiy sabablarga ko'ra milliy tadbirkorlar, kasaba uyushmalari va xotin-qizlar jamoat tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlash (byudjet va turli iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni tayyorlash asnosida) haqida so'z borishi kerak. O'z navbatida, bu nafaqat tegishli davlat organlari rahbarlari, balki xususiy tadbirkorlarni va kasaba uyushmalari sardorlaridan ham gender tengligini hisobga olishni talab qiladi. Qariyb butun dunyoda tadbirkorlikda ham, kasaba uyushmalarida ham erkaklarning qo'li balanddir. Xususan, AQSHning yuzta yirik kompaniyasi kengashining 1315 nafar a'zosidan 7,5 foizini va yirik kasaba uyushmalari rahbarlarining esa 11,5 foizinigina xotin-qizlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida yangi asr boshida erkaklar va xotin-qizlarning nisbati 56 va 44 foizni tashkil qilgan edi. Xotin-qizlarning iqtisodiy faollik darajasi erkaklarnikidan past. Xotin-qizlar uchun ta'lim, sog'liqni

saqlash, madaniyat, san'at, fan kabi yo'nalishlar an'anaviy mehnat sohalariga aylangan.

2007 yili iqtisodiyotning turli sohalarida 46 foiz xotin-qiz faoliyat yuritar edi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida band bo'lgan xotin-qizlarning soni 4 millionni tashkil qiladi, ularning faolligi erkaklarnikidan 15,8 foiz kam.

Kredit olgan tadbirkor xotin-qizlar soni 1991 yil 2 foizdan 2015 yil 55 foizgacha oshdi.

O'zbekistonda har yili 400 mingdan ortiq ish o'rni ochilib, ularning 40 foizdan ko'prog'i xotin-qizlarga mo'ljallanadi.

O'zbekiston tadbirkor ayollar assotsiatsiyasi tomonidan xotin-qizlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan «Biznesni qanday boshlash kerak», «Biznes planni qanday tuzish kerak», «Marketing asoslari», «Ayol va jamiyat», «Kichik va o'rta biznes», «Ayollar va ularning huquqlari» kabi mavzularda treninglar o'tkaziladi. 2006 yili ana shunday treninglarda 7500 xotin-qiz qatnashib, ulardan 1000 nafari o'z shaxsiy ishini ochdi. To'rt yuzdan ortiq xotin-qiz mahalliy kasb-hunar va hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar bo'yicha ta'lim oldi.

Biroq, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan barcha chora-tadbirlar, davlat sektorida ishlaydigan xotin-qizlarga bo'lgani kabi, nodavlat sektorda ishlaydigan xotin-qizlarga ham taalluqlidir degan tushuncha hali to'la shakllangan emas.

Xotin-qizlarning tashqi siyosat idoralari faoliyatidagi ishtiroki

Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning 8-moddasiga muvofiq, davlatlar xotin-qizlarning erkaklar bilan tenglik asosida va hech qanday kamsitilishsiz xalqaro miqyosda o'z hukumatlari nomidan vakillik qilish va xalqaro tashkilotlar ishida ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlash maqsadida barcha tegishli choralarni ko'rishlari shart.

Boshqa davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlar quyidagi hollarda o'z hukumatlari nomidan vakillik qilishlari mumkin:

➤ ular davlat va hukumat boshlig‘i yoki yuqori davlat lavozimini egallagan bo‘lsa;

➤ deputat yoki senator bo‘lsa, parlament, hukumat, vazirliklar tuzilmalari, idora rahbari bo‘lsa;

➤ qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlari organlarida o‘rta boshqaruv lavozimida bo‘lsa va xalqaro tashkilotlar faoliyatida hamda turli xalqaro anjumanlarda yuqori organlar va mansabdor shaxslarning topshirig‘iga ko‘ra ishtirok etsa;

➤ Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tizimida va O‘zbekiston Respublikasining savdo va investitsiyalar tizimida hamda boshqa tashqi siyosiy, tashqi iqtisodiy idoralarda elchi, konsul lavozimlarida, xalqaro tashkilotlar, savdo vakolatxonalarida vakil sifatida ishlasalar.

O‘zbekistonning xalqaro amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlar ko‘pincha turli xalqaro anjumanlarda o‘zlari ishlaydigan idoralarning vakili sifatida faol ishtirok etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo‘mitasi raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili, O‘zbekiston Respublikasi kasaba uyushmalari federatsiyasi raisining xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishi odat tusini olgan.

Biroq, tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, Tashqi ishlar vazirligi tizimida, bevosita diplomatik sohada faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar kamchilikni tashkil qiladi.

Tashqi siyosat sohasida xotin-qizlar vakillari yanada ko‘proq bo‘lishini ta‘minlash ushbu muammoni chuqur o‘rganishni va diplomatiya faoliyatida xotin-qizlar ishtirokining konseptual asoslarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Bunda xotin-qizlarning diplomatik lavozimlaridan bosqichma-bosqich o‘tib borishini ta‘minlash, diplomat xotin-qizlarni tayyorlash, elchilik va konsullik lavozimlariga tayinlash mexanizmlari va mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

2.3. Xotin – qizlarning ijtimoiy – iqtisodiy sohalardagi huquqlari

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlari bir tomondan, jinsiy mansubligidan qat’i nazar barcha fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarining tengligini tan oladi, ikkinchi tomondan, xotin-qizlar va oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan band bo‘lgan shaxslar uchun qo‘shimcha kafolatlarni nazarda tutadi. Bunday kafolatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

➤ homiladorligi tufayli yoki yosh bolasi borligi tufayli ayollarning ishga olinishini rad qilish va ish haqining kamaytirilishining taqiqlangani. Ayolni homiladorligi yoki yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g‘ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo‘shatganlik uchun ishga olish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar

(O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 148-moddasi);

➤ kuchli ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga, ya’ni ishga joylashishda qiyinchi liklarga duch keladigan va mehnat bozorida teng sharoitda raqobatga bardosh bera olmaydigan, shuningdek, yolg‘iz ota-onasi hamda o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan bolalarga yoki nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalarga qo‘shimcha kafolatlar berilgani. (Bandlikka ko‘maklashuvchi davlat fondi ko‘magida qo‘shimcha ish joylarini yaratish; ta’lim olishning maxsus dasturlarini tashkil qilish; qayd etilgan toifadagi fuqarolarni ishga joylashtirish maqsadida korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga bunday shaxslar uchun kam bo‘lsa-da, ish o‘rinlari ajratishini belgilash va boshqalar);

➤ homilador ayollarni va uch yoshgacha farzandi bo‘lgan ayollarni ishga olishda dastlabki sinov muddatlarini belgilashga yo‘l qo‘ymaslik;

➤ xotin-qizlardan noqulay mehnat sharoitidagi ishlarda va er ostidagi ishlarda foydalanishni taqiqlash, shuningdek xotin-qizlar uchun belgilangan normalardan ortiq og‘ir yuklarni ko‘tarishi va tashishiga yo‘l qo‘ymaslik;

➤ xotin-qizlarga homiladorligi tufayli va tug‘ish bo‘yicha ta‘til berish, bunda ta‘til kunini tug‘ishga qadar etmish kalendar kuni va tuqqan i dan keyin ellik olti kalendar kuni (tug‘ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug‘ilgan hollarda — etmish kalendar kuni) qilib belgilash. Ta‘tilning barcha kunlari uchun ayolning o‘rtacha ish haqining 100 foizi miqdorida davlat ijtimoiy sug‘urtalash bo‘yicha nafaqa to‘lash;

➤ homiladorlik va tug‘ish ta‘tili tugagach, ayolning xohishiga ko‘ra bolani parvarishlash uchun ta‘til berish:

➤ bola ikki yoshga to‘lguniga qadar O‘zbekistonda belgilangan eng kam oylik ish haqining 200 foizi miqdorida nafaqa to‘lash;

➤ bola ikki yoshga to‘lgandan so‘ng ish haqi saqlanmagan holda bola uch yoshga to‘lguni cha ta‘til berish;

➤ ikki yoshga to‘lmagan bolasi bor va ishlashni xohlayotgan ayollarga ish kuni davomida bolani ovqatlantirishi uchun ish vaqtiga kiradigan va o‘rtacha ish haqi bo‘yicha haq to‘lanadigan tanaffuslar berishning belgilangani;

➤ uch yoshga to‘lmagan bolasi bor va davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladigan muassasa va tashkilotlarda ishlaydigan ayollar uchun mehnat haqini kamaytirmasdan qisqartirilgan (35 soat) ish haftasini joriy etish;

➤ ish beruvchiga, tibbiy xulosaga ko‘ra homilador ayollarga ishlab chiqarish me‘yorlarini, xizmat ko‘rsatish me‘yorlarini kamaytirish yoxud homilador ayollarni, shuningdek, ikki yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollarni nisbatan engil ishga o‘tkazish yoki ishlab chiqarishning noqulay sharoitdagi ishidan ozod qilish, bunda avvalgi ishi uchun to‘lanadigan haqni saqlab qolish vakolatining berilganligi;

➤ homilador ayollarni va o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollarni ularning roziligisiz tungi ishlarga, ish vaqtdan tashqari, dam olish va bayram kunlarida ishga jalb qilishni va xizmat safariga jo‘natishni taqiqlash. Yana shuni ta‘kidlash lozimki, homilador ayollar va uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollarni tungi ishlarga faqat bu ishning ona va bola sog‘ligiga xavf tug‘dirmasligi to‘g‘risidagi tibbiyot xulosasi mavjud bo‘lgandagina jalb qilish mumkin;

➤ ish beruvchining homilador ayollarning yoki o'n to'rt yoshga to'lmagan bolasi bor (nogiron bo'lsa — o'n olti yoshgacha) ayollarning, shuningdek qaramog'ida yosh bolalari bo'lgan ayollarning iltimosiga ko'ra to'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasini o'rnatish vakolatini mustahkamlash;

➤ homilador ayollar va tuqqan ayollar uchun ularning xohishiga ko'ra homiladorlik va tug'ish ta'tili oldidan yoki undan keyin yoxud bola parvarishlash ta'tilidan so'ng ta'til berish;

➤ shuningdek, o'n to'rt yoshga to'lmagan bir yoki undan ortiq bolani (o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolani) tarbiyalayotgan yolg'iz ota, yolg'iz onaga (beva ayol va yolg'iz erkaklar, n i koh dan ajrashgan lar, yolg' iz ona lar) va mud datli harbi y x izmatn i o' tayo t gan xarbiy xizmatchilarning xotinlariga mehnat ta'tilidan o'z xohishlariga ko'ra yozgi mavsumda yoki

ular uchun qulay bo'lgan boshqa davrda foydalanish huquqining mustahkamlangani;

➤ ikki yoki undan ortiq o'n ikki yoshga to'lmagan bolani yoki o'n olti yoshgacha bo'lgan nogiron bolani tarbiyalayotgan ayollarga davomiyligi uch kundan kam bo'lmagan yillik qo'shimcha ta'til berish va ularning xohishiga ko'ra ish haqi saqlab qolinmagan holda davomiyligi o'n to'rt kundan kam bo'lmagan muddatda yillik ta'til berish;

➤ nogiron bolani tarbiyalayotgan ota-onalardan biriga (vasiyga, homiyga) u o'n olti yoshga to'lgunga qadar bir oyda bir marta davlat ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'lanadigan qo'shimcha dam olish kuni berish;

➤ homilador ayollar va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra tugatilishiga yo'l qo'ymaslikning mustahkamlangani. Bu qoidadan faqat bir holat — tashkilotning tugatilishi istisnodir, biroq bunday holatda mehnat shartnomasining tugatilishiga ayolni boshqa ishga joylashtirish sharti bilangina yo'l qo'yiladi, bu holat mehnat bo'yicha mahalliy organlar tomonidan amalga

oshiriladi va ayol ishga joylashtirish davri mobaynida qonunchilikda belgilangan ijtimoiy to'lovlar bilan ta'minlanadi.

SHunga ahamiyat berish kerakki, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga ko'ra (238-modda), ayollarga onalik bilan bog'liq holda beriladigan kafolatlar va imtiyozlar (tungi ishlarga va ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb etishni va xizmat safarlariga yuborishni cheklash, shuningdek qo'shimcha ta'tillar berish. imtiyozli ish rejimlarini o'rnatish hamda mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan boshqa kafolat va imtiyozlar), onasiz bolalarni (ona vafot etgan, onalik huquqlaridan mahrum etilgan, uzoq vaqt davolash muassasalarida bo'lgan va bolalari to'g'risida ona sifatida g'amxo'rlik qilmagan boshqa hollarda) tarbiyalayotgan otalarga, shuningdek voyaga etmagan bolalarning vasiylariga (homiylariga) ham tatbiq etiladi.

Ko'rilayotgan kafolatlar va imtiyozlar, shuningdek ota-ona g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalarni amalda tarbiya qilayotgan buviga, buvaga yoki boshqa qarindoshlarga ham beriladi.

Ayollarga beriladigan qayd etilgan kafolatlar O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida, «Aholining bandligi to'g'risida»gi, «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi va boshqa qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan.

SHuni ta'kidlash kerakki, Mehnat kodeksiga muvofiq, qonunchilikda belgilangan xodimning mehnat huquqlari va kafolatlari ish beruvchi tomonidan ta'minlanadi. Korxonaning hech qanday ichki hujjatlarida, xodim bilan tuzilgan hech qanday shartnomada boshqa me'yoriy hujjatlarda ushbu Kodeksda nazarda tutilganidan yomon shartlar bo'lmasligi kerak. Agarda mehnat haqidagi kelishuvlar va shartnomalarga bunday shartlar kiritilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 5-moddasiga asosan ular haqiqiy emas, deb hisoblanadi.

Binobarin, bular xotin-qizlar uchun qonunchilikda belgilangan minimal darajadagi kafolatlar va imtiyozlardir. Bu bir tomondan ushbu darajaning umummajburiy ekanligini bildirsa, ikkinchi tomondan, qonunchilikda belgilangan

ushbu kafolatlar va imtiyozlarga nisbatan qo'shimchalar ravishda jamoa shartnomalari yoki yakka shartnomalar tartibida belgilanishi mumkinligidan dalolatdir. SHuni ta'kidlash muhimki, xotin-qizlar uchun jamoa shartnomalari, kelishuvlar va yakka tartibdagi mehnat shartnomalarida belgilangan qo'shimcha kafolatlar va imtiyozlar ish beruvchilar uchun qonunchilikda belgilangan kafolatlar kabi majburiydir.

Xotin-qizlar uchun ko'zda tutilgan bir qator qo'shimcha huquq va kafolatlar (erkaklar uchun belgilanganiga nisbatan yoshroq va kamroq mehnat stajiga ega bo'lgan holatlarda yoshi bo'yicha pensiyaga chiqish; ishlamayotgan onaning (o'gay onaning) yosh bolalarini (o'gay bolalarini) har bir bolaning uch yoshga to'lgunicha, umumiy hisobda olti yildan oshmagan holda, parvarishlash vaqtini pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga kiritish; besh va undan ko'p bolani tug'ib, ularni sakkiz yoshgacha tarbiya qilgan ayollarning, ularning umumiy ish staji 15 yildan kam bo'lmasa, yoshi bo'yicha pensiyaga barvaqtroq, belgilangan yoshdan besh yil avval chiqishi imkoniyati va h. k.) O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq ba'zi qo'shimcha kafolatlar oilaning boshqa a'zolariga ham taalluqli bo'ldi. Agar, bola uch yoshga to'lgunga qadar beriladigan ta'til avval faqat bolaning onasiga berilgan bo'lsa, hozirgi qonunchilikda bunday ta'tilni kim olishi masalasini oilaning o'zi hal qilishi ko'rsatilgan. Bugungi kunda bola parvarishlash bo'yicha ta'tilni to'la yoki qismlarga bo'lib faqat ona emas, balki bolani tarbiya qilayotgan otasi, buvisi, buvasi yoki boshqa qarindoshlari ham olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi uchun ona va bola manfaatlariga xizmat qiladigan qo'shimcha kafolatlar va huquqlarning erkaklarga berilishi juda muhim yangilikdir.

CHunonchi, Mehnat kodeksining 144-moddasiga asosan ishlayotgan erkaklarga yillik ta'til ularning xohishiga binoan xotinining homiladorlik va tug'ish ta'tili davrida beriladi.

SHunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi:

- erkaklar va xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarining tengligini nazarda tutadi;
- xotin-qizlarga ularning fiziologik xususiyatlarini va ona bo‘lishini hisobga olgan holda qator qo‘shimcha huquqlar va kafolatlarni berishni nazarda tutadi;
- ayollarga beriladigan kafolatlar va imtiyozlarning ko‘pini otalarga yoki ona tarbiyasidan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan boshqa qarindoshlarga berilishini ta‘minlaydi;
- qonunchilikda belgilangan holatlarda, oila a‘zolariga muayyan huquqdan (masalan, bolani parvarishlash bo‘yicha ta‘til olish huquqi) kim (bolaning ona, otasi, buvisi, buvasi yoki boshqa qarindoshi) foydalanishini mustaqil hal qilish imkoniyatini beradi;
- ayollar va bolalar manfaatini ko‘zlab, bolaning otasiga qo‘shimcha huquq va kafolatlar berishni nazarda tutadi (erkaklarga yillik ta‘tilni ularning xohishiga binoan xotining homiladorlik va tug‘ish ta‘tili davrida berish).

Xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash masalalarida erishilgan yutuqlar

Keyingi yillarda aholining, jumladan xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash bo‘yicha, kasanachilik, kichik korxonalar va mikrofirmalarni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish borasida davlat tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar ancha kengaydi.

Ushbu maqsadlarga erishishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvarda qabul qilingan «Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 3706-farmoni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 11 yanvarda qabul qilingan 1-qarori muhim omil bo‘lmoqda.

Ushbu hujjatlar aholini kasanachilik sohasiga keng jalb qilish uchun quyidagi qulay sharoitlarni yaratadi:

- kasanachilar mehnatidan foydalanadigan korxonalar uchun kasanachilarga yuklatilgan ishni bajarish uchun foydalanishga topshirilgan beg'araz mulkka (asbob-uskunalar, jihozlar) bo'lgan soliq bo'yicha imtiyozlar belgilash, shuningdek, mehnat shartnomalariga asosan kasanachilarga to'lanadigan haq miqdorida yagona ijtimoiy to'lov to'lashdan ozod qilish;
- kasanachilar mehnatini ijtimoiy himoyalash va muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan choralar tizimini mustahkamlash.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat va aholini ijtimoiy himoyalash vazirligining bergan ma'lumotlariga qaraganda, kasanachilikni rivojlantirish natijasida 2006 yilda 60 mingga yaqin ish o'rni yaratilgan, bulardan 30 mingdan ortig'i xotin-qizlar uchun mo'ljallangan. Bunda jami ish o'rinlarning qariyb yarmi qishloq joylarida tashkil qilingan.

Mehnat bo'yicha bandlikni kengaytirish, mehnat va ijtimoiy himoya bo'yicha davlat organlari faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar dasturiga (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 06 apreldagi PQ-616— qarori bilan tasdiqlangan) ko'ra bandlikka oid hududiy dasturlar asosida 2007 yildan boshlab har yili, 550 mingdan kam bo'lmagan yangi ish o'rnini, jumladan quyidagilarni yaratish ko'zda tutilmoqda:

- kichik korxonalar va mikrofirmalarni rivojlantirish hisobidan 320 ming ish o'ri;
- kasanachilikni va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 160 ming ish o'ri;
- amaldagi korxonalarni moliyaviy-iqtisodiy sog'lomlashtirish, yangi yirik ishlab chiqarish ob'ektlarini ochish, ijtimoiy va bozor infrastrukturasi rivojlantirish hisobidan 70 ming ish o'ri.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, mazkur Dasturda bandlikni ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui ham nazarda tutilgan. SHu bilan birga ushbu Dasturda xotin-qizlarning bandligini oshirishni ta'minlashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarning yo'qligi kishini o'ylantiradi.

Mehnat va bandlik sohasida kamsitishning oldini olishga doir masalalar

O'zbekistonda xotin-qizlarning kamsitilishini bartaraf etish va ularni mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishga jalb qilish uchun barcha huquqiy sharoitlar yaratilgan. Xotin-qizlar va erkaklarning tengligi va jinsiy kamsitishlar Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan. Xotin-qizlar uchun qonunchilik bilan mehnat huquqlaridan foydalanishda teng imkoniyat hamda ularni himoyalash kafolatlari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasi, shuningdek Mehnat kodeksining 6-moddasi mehnatga oid munosabatlarda xotin-qizlarni kamsitishni taqiqlaydi. Bunga ko'ra kamsitilgan shaxslar, keltirilgan moddiy va ma'naviy zararni undirish uchun belgilangan tartibda sudga murojaat qilishlari mumkin.

Bundan tashqari, ular uchun mehnat sohasida oilaviy majburiyatlarini bajarishida qo'shimcha kafolatlar belgilangan — bular homilador ayollar va yosh bolasi bor ayollarni ishga olishda (bo'shatishda) qo'shimcha kafolatlarning berilishi, noqulay mehnat sharoitiga ega ishlarda ayollar mehnatidan foydalanishni taqiqlash, homiladorligi va tug'ishi tufayli hamda bola parvarishlashi uchun ta'til berish, qo'shimcha dam olish kunlari va ta'til berish va boshqalar.

Hukumat bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida oilalar daromadlari ko'payishini qo'llab-quvvatlash ko'p jihatdan xotin-qizlarni ishlab chiqarish sohasiga jalb qilishga bog'liq ekanligini anglab, mehnat faoliyatini va bola tarbiyasi bilan bog'liq g'amxo'rlikni samarali moslashtirish uchun tegishli sharoit yaratishga muhim e'tibor qaratmoqda.

Ishlayotgan ayollar uchun mehnat sohasida imtiyoz va kafolatlar belgilangan bo'lib, hujjatlarda noqulay mehnat sharoitiga ega ishlarda ayollar mehnatidan foydalanishni cheklash, qulay ish vaqtining belgilanishi, mehnat nafaqasini olish uchun belgilangan yosh ko'rsatkichini kamaytirish o'z ifodasini topgan.

Homilador ayollarning va uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarning ish beruvchining xohishiga ko'ra ishdan bo'shatilishiga yo'l qo'yilmaydi, korxonalar to'liq tugatilishi bilan bog'liq holatlar bundan mustasno.

Iqtisodiyotda nodavlat sektorning shakllanishi faoliyatning yangi sohalarini keltirib chiqardi. Ular esa o'z navbatida har bir insonning qobiliyat va qiziqishlariga to'g'ri keladigan mustaqil mehnat, ya'ni xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanishi uchun cheklanmagan imkoniyatlar berdi.

Onalik va bolalik masalalari

Keyingi yillarda respublikada onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha qonuniy va normativ aktlarning bajarilishi yuzasidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini yaratish va takomillashtirishda etakchi xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish;
- oilani mustahkamlash, onalar va bolalarning moddiy ahvolini yaxshilash uchun tegishli iqtisodiy sharoitni yaratish, bolalar va o'smirlar orasida ma'naviy buzilishning oldini olish;
- yosh sog'lom oilani shakllantirish, bola tug'ilganda, uni parvarishlashda, emlashda va boshqa turdagi tibbiy xizmatlardan foydalanishda davlat tomonidan bepul yordam ko'rsatish;
- umummilliy miqyosda bepul 12-yillik umumta'lim dasturini amalga oshirish, yigit va qizlarning oliy va o'rta maxsus muassasalarida ta'lim olishi uchun davlat grantlari orqali tegishli mablag' ajratish;
- aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlari — nogiron bolalar, etimlar, kam ta'minlangan oila farzandlarini davlat muhofazasiga olish;
- jamiyatda oila, ona va bola rivoji uchun maxsus sharoit, ahloqiy norma va qoidalarni shakllantirish.

O'zbekistonda xotin-qizlar ahvolini yaxshilash, ularga nisbatan kamsitishlarni bar taraf etishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy vositalar mavjud.

Davlat va jamiyat miqyosida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga xizmat qiladigan tuzilmalar yaratilgan. Bular — Savdo-sanoat palatasi, Biznes

fond, Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish fondi, Tadbirkor ayollar assotsiatsiyasi va h. k.

2000 yil 1 oktyabr holatiga ko'ra «Sog'lom avlod yili» Davlat dasturini amalga oshirishda sog'lom oilani shakllantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- qarindoshlik va erta nikohlarning oldini olish;
- aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar o'rtasida reproduktiv salomatlik bo'yicha keng tushuntirish ishlarini olib borish;
- reproduktiv salomatlik masalalari va sog'lom oilani shakllantirishda erkaklarning roli va mas'uliyatini oshirish;
- sog'lom oilani targ'ib qilishda vazirlik va idoralarning, hokimliklar, jamoat, diniy, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamg'armalarning ishtirokini ta'minlash.

Bu dasturni amalga oshirish maqsadida sog'lom oilani shakllantirish va sog'lom bola tug'ilishini ta'minlash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Akusherlik va ginekologiya ilmiy tadqiqot institutida Inson reproduksiyasi markazi tashkil qilindi.

Toshkent shahrida va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi markaziy kasalxonalarda ushbu markazning statsionar bo'limlari ochildi, FHDYO bo'limlarida yoshlarni oila qurishga tayyorlaydigan doimiy faoliyat ko'rsatadigan kurslar (huquqshunoslar, psixologlar, ginekologlar va boshqa mutaxassislar maslahati) tashkil qilindi.

Har bir oila uchun optimal oila tarkibi, uning salomatligi va profilaktikasi bo'yicha dasturlar ishlab chiqildi.

Onalik va bolalik: salomatlik masalalari

Ona va bola salomatligi — mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi darajasining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Bundan tashqari, genofondni saqlab qolish, avvalo ayol-onaning sog'ligiga bog'liq. Respublikada tug'ish yoshidagi ayollar va bolalarni sog'lom lash tirish bo'yicha kompleks dasturlar

ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda, bu jarayonda ko'plab vazirliklar, idoralar, xayriya fondlari, jamoat tashkilotlari ishtirok etmoqda. Tug'ish yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirishning ijobiy natijalaridan biri — bolalar o'limining kamayganidir.

Respublikada abortlar sonining keskin kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Abortga istalmagan homiladorlikning oldini oladigan asosiy vosita sifatida qarash kamaygan.

Aksariyat hollarda ayollar zamonaviy kontratseptiv vositalardan foydalanmoqdalar.

Ayollar salomatligi va sog'liqni saqlash sohasining rivojlanishi ko'rsatkichlaridan biri bu onalar o'limi darajasining kamayishidir. Respublikada 1991 yildan 2005 yilga qadar onalar o'limi darajasi deyarli 2,5 baravarga kamaydi (10000 tirik tuqqanlar hisobiga 65,3 dan 29,2 gacha).

1996 yil 29 avgustda qabul qilingan 265-I sonli «Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida»gi qonunning 13-moddasida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sog'ligini saqlash huquqiga egadirlar. Davlat fuqarolarga ularning yoshi, jinsi, millati, irqi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy holatidan qat'i nazar sog'ligini muhofaza qilishni ta'minlaydi.

Davlat fuqarolarga ularda turli shakllardagi kasalliklar mavjudligidan qat'i nazar kamsitishlardan himoyalaniшни kafolatlaydi. Bu qoidani buzishda aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan xavfsiz onalikni ta'minlash va genofondni sog'lomlashtirishga qaratilgan tug'ish yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirish bo'yicha kechiktirib bo'lmas chora-tadbirlarga oid mahalliy dastur amalga oshirilmoqda.

Aholi salomatligining muhim mezonlaridan biri — kasalliklarga oid ko'rsatkichlardir. O'tish davrining murakkabliklari natijasida sog'liqni saqlashga ajratiladigan amaldagi davlat mablag'lari kamaydi. Byudjet hisobidan moliyalashning kamayishi, dori-darmon narxining, sog'liqni saqlash muassasalarini ta'minlashning, asbob-uskunalar, tibbiy inventarlar, vaksinalar,

reaktivlar, dezinfeksiya vositalari, bemorlarni ovqatlantirish va xokazolar narxining oshishi kasalliklarning oldini olish va bemorlarni davolashda tibbiy muassasalar salohiyatining pasayishiga olib keldi.

Ijtimoiy himoya masalalari

Xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 martda «O‘zbekiston Respublikasining davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi, 2004 yil 25 mayda «O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlari, O‘zbekiston xotin-qizlarining ahvolini yaxshilash bo‘yicha milliy platforma va Harakatlar rejasi, Xotin-qizlarga nisbatan barcha kamsitishlarga barham berish qo‘mitasining tavsiyalarini bajarish bo‘yicha Milliy harakat dasturi qabul qilindi. 1998 yil 1 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Nogiron bolalar tug‘ilishining oldini olish uchun yangi tug‘ilgan chaqaloq va homilador ayollarda tug‘ma va boshqa patologiyalarni aniqlash — ona va bola skriningi davlat tizimini tashkil etish to‘g‘risida»gi 140-qarori qabul qilindi.

O‘zbekistondagi demografik holatning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu tug‘ilish ko‘rsatkichining yuqoriligidir. Masalan, 2006 yilda bu ko‘rsatkich 1000 kishiga 25,3 nitashkil qilgan. Iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning murakkabligi va keskinligi, bir qator hududlarda ekologik vaziyatning yomonligini hisobga olganda bu tendensiya yashash darajasining pasayishi, ishsizlikning ko‘payishi, aholining mehnatga layoqatli qatlami orasida iqtisodiy nochorlikning kuchayishi kabi salbiy oqibatlariga olib keladi.

Sud tartibida erta nikohdan o‘tish, ota-onalarning ichkilikbozligi, narkotik moddalarni iste‘mol qilishi natijasida tug‘ilganligi isbotlanganda nogiron bolalaridan voz kechgan oilalarga aliment to‘lash tizimi ishlab chiqilgan. Bunday holatlarda to‘lanadigan aliment miqdorini ko‘paytirish bo‘yicha berilgan takliflar ham ko‘rib chiqilmoqda.

Mamlakat hukumatining qabul qilgan qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator qaror va farmoyishlar qabul qilingan, xususan, 1999 yil 14 yanvarda «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rolini oshirish va aholining manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashini ta'minlash to'g'risida», 1999 yil 17 martda «O'ta zararli va o'ta xavfli mehnat sharoitlarida ishlaydigan xotin-qizlar daromadini soliqqa tortish bo'yicha imtiyozlar to'g'risida», 1999 yil 3 sentyabrda «YAkka tartibdagi qurilishni amalga oshirayotgan ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2000 yil 15 fevralda «Sog'lom avlod yili» dasturi to'g'risida», 2000 yil 4 martda «Sog'lom avlod uchun» xalqaro nodavlat hayriya fondi faoliyatini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida», 2000 yil 6 martda «Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish to'g'risida», 2000 yil 4 mayda «Bolalar uchun tovarlar va ayollar gigienasi predmetlarini ishlab chiqarish va sotishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» qarorlar qabul qilindi.

Ijtimoiy sohaning alohida tarmoqlariga e'tiborni kuchaytirish maqsadida har yili maqsadli davlat dasturlari ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. 1997 yilda qabul qilingan inson manfaatlarini ta'minlashga doir chora-tadbirlar davlat dasturi, 1998 yilda qabul qilingan oila manfaatlarini ta'minlash chora-tadbirlariga oid davlat dasturi, 1999 yilda qabul qilingan oilada xotin-qizlar rolini kuchaytirish chora-tadbirlari davlat dasturi, davlat va jamiyat qurilishi, ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, 2000 yili qabul qilingan «Sog'lom avlod», 2001 yili qabul qilingan «Ona va bola yili», 2002 yili qabul qilingan «Qariyalarni qadrlash yili», 2003 yili qabul qilingan «Mahalla yili», 2005 yili qabul qilingan «Sihat-salomatlik yili», 2006 yili qabul qilingan «Homiylar va shifokorlar yili», 2007 yili qabul qilingan «Ijtimoiy himoya yili» va 2008 yili qabul qilingan «YOshlar yili» va 2016 yili qabul qilingan «Sog'lom ona va bola yili» davlat dasturlari bunga misol bo'la oladi.

Odami savdosi va noqonuniy migratsiyaning oldini olish

Xotin-qizlar savdosi va jinsiy qullik xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik shakllaridan biri hamda huquqlarini qo‘pol ravishda buzishdan iboratdir. O‘zbekiston odam savdosi transmilliy jinoiy faoliyat hisoblanishini va uning oldini olish uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan kelishilgan sa‘y-harakat talab etilishini tan oladi.

Hukumat boshqa mamlakatlar, jumladan mintaqadagi sheriklari bilan ushbu jinoyatga qarshi kurashda yaqin hamkorlik qilib kelmoqda va bu hamkorlik yanada kuchaymog‘i darkor. Respublikada xotin-qizlar savdosi ayniqsa alohida tashvish tug‘diradi.

2000 yilning 15 noyabrida BMT Bosh assambleyasining 55-sessiyasida Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini to‘ldiruvchi Odam savdosini, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo‘yish va uning uchun jazolash haqidagi Protokol qabul qilindi. Xalqaro darajadagi ushbu hujjatlar davlatlarning odam savdosiga qarshi kurash bo‘yicha majburiyatlarini belgilab berdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2000 yilning 15 noyabrdagi Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashga oid konvensiyasini to‘ldiruvchi Odam savdosining, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo‘yish va uning uchun jazolash haqidagi Protokolning 3 moddasiga muvofiq:

a) «odam savdosi» mehnatidan foydalanish maqsadida amalga oshiriladigan odamlarni kuch bilan qo‘rqitish yoxud kuch ishlatish, majburlashning boshqa shakllarini qo‘llash, o‘g‘irlash, tovlamachilik qilish, aldash, hokimiyat yoki ahvolning zaifligidan foydalanish, boshqalarni nazorat qiladigan shaxsning roziligini olish uchun pul to‘lash yoki foyda olish ko‘rinishida sotib olish orqali yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki egalik qilish tushuniladi. Foydalanish atamasi boshqa shaxslardan fohishalik yoki jinsiy maqsadda foydalanishning boshqa shakllari, majburiy mehnat yoxud xizmatlar, qullik yoki qullikka o‘xshash odatlar, qaramlik yoxud organlarni olishni o‘z ichiga oladi;

b) odam savdosi qurbonining ushbu modda (a) kichik bandida qayd etilgan rejalashtirilgan ishga rozilik bildirishi (a) kichik bandida ko'rsatilgan ta'sir ko'rsatish vositalaridan birortasidan foydalanilgan bo'lsa, e'tiborga olinmaydi;

s) bolani uning mehnatidan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki unga egalik qilish (a) kichik bandida qayd etilgan ta'sir ko'rsatish vositalaridan birortasi bilan bog'liq bo'lmasa-da, «odam savdosi» hisoblanadi.

O'zbekistonda 2001 yildan buyon davlat tashkilotlaridan tashqari nodavlat notijorat tashkilotlar (masalan, Istiqbolli avlod ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda. YOsh xotinqizlarning jinsiy ehtiyojni qondirish maqsadida foydalanish uchun xotin-qizlar savdosi muammosi bo'yicha xabardorligini oshirish ushbu tashkilotlar faoliyatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu davr ichida radio va televideniening «YOshlar» kanalida ushbu mavzu yuzasidan turkum ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil etilib, turli tok-shoular o'tkazilmoqda. O'quv yurtlari va mehnat jamoalarida bo'lib o'tayotgan suhbatlar, seminarlar, davra suhbatlarida noqonuniy mehnat migratsiyasi bilan bog'liq masalalar keng tushuntirilmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari davlat va huquqni muhofaza qilish idoralari bilan hamkorlikda ushbu mavzu bo'yicha o'zbek tilida katta tirajda axborot varaqalari va bukletlar chop etdi hamda ular aholi, ayniqsa yoshlar orasida tarqatilmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlar huquqni muhofaza qilish organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar xodimlari bilan yaqin hamkorlikda noqonuniy mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha profilaktika ishlarini o'tkazmoqda. Respublikaning barcha hududlarida nodavlat notijorat tashkilotlari sa'y-harakati bilan chet elda noqonuniy ishlash xavfi to'g'risida anonim bepul maslahat beradigan ishonch telefonlari tashkil etilgan. Respublika boshqa mamlakatlardagi nodavlat notijorat tashkilotlari bilan noqonuniy mehnat migratsiyasi trafik qurbonlarini vataniga qaytarish masalalari bo'yicha faol hamkorlik qilib kelmoqda.

Xotin-qizlarga nisbatan barcha kamsitishlarga barham berish qo'mitasi tomonidan bildirilgan YAkuniy takliflarda O'zbekistonda odam savdosi va uni

ekspluatatsiya qilishning oldini olishga oid qonuni qabul qilish, ushbu vazifani hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligiga e'tibor qaratilgan.

SHu o'rinda ta'kidlash joizki, 2008 yil 17 aprelda O'zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 8 iyuldagi «Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 911-qarori bilan «2008–2010 yillarda odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha milliy harakat rejasi» tasdiqlandi.

Xulosa va tavsiyalar

Bugungi kunda inson huquqlarining ta'minlanishi va himoya qilinishi demokratik fuqarolik jamiyatining muhim belgisi ekanligi haqidagi qoida umum tomonidan e'tirof etilgandir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlariga sodiqligini e'lon qilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni maqsad qilib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan oladi, fuqarolarning huquq va erkinliklari tengligi tamoyilini mustahkamlaydi.

SHuni ta'kidlash lozimki, gender tengligi va erkaklar hamda xotin-qizlarning teng imkoniyatlari xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan o'zgarmas tamoyillar, tayanch qadriyatlar va andozalardir. Bu tamoyillar bir tomondan ijtimoiy adolat va asl demokratiyaning uzviy talablari bo'lib, ikkinchi tomondan xotin-qizlar va erkaklar huquqlarini ta'minlashning asosiy talablaridir.

O'zbekiston tomonidan inson huquqlari sohasidagi asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilinib, ularni ta'minlash va muhofaza etishga, shuningdek kamsitishlarga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan qonunlar qabul qilingan.

O'zbekistonning BMT Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shilgan. Lekin mazkur normalarning O'zbekiston hududida qo'llanish usullari va vositalari uchun bevosita mas'ullar orasida masaladan etarli darajada xabardor emas shaxslar uchrab turadi.

O'zbekistonda jamiyat hayotining siyosat sohasida xotin-qizlarning o'z huquqlaridan to'la foydalanishiga, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda erkaklar bilan teng huquqli ishtirok etishiga monelik qila digan qator omillar mavjud. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

➤ xotin-qizlarga faqat uy bekasi deb qarashga oid eskicha aqidalar, (qizlarni muayyan mutaxassislik bo'yicha qobiliyatini namoyon qilishga emas, asosan oilaviy hayotga tayyorlash, farzand tarbiyasi, eri bilan muomalaga o'rgatish);

➤ xotin-qizlar oldida turgan maqsad va vazifalarning sustligi, ularning o'z sevgan kasbi bilan shug'ullanishni istashi, lekin rahbarlik lavozimlariga intilmasligi kuzatiladi, chunki bunday intilish ko'pgina hollarda atrofdagilar, jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi, garchi ayollar etarlicha ta'lim olgan, aql-zakovatli, yuqori lavozimlarda ishlashni istasa-da, ularning uy-ro'zg'or yumushlari, bola tarbiyasi bilan band bo'lishi, o'z oilasining farovonligini ta'minlashga intilishi, erkaklar oila tashvishlaridan o'zini olib qochishi, xotin-qizlarning o'z siyosiy maqsadlarini amalga oshira olmasligiga sabab bo'ladi;

➤ ayollarning uy-ro'zg'or muammolarini hal qilishga yordam beradigan ijtimoiy xizmatlar sonining etarli emasligi, taklif qilinayotgan xizmatlarning qimmatligi, davlat tasarrufidagi maktabgacha tarbiya muassasalari sonining kamayishi ayollarning davlat va mahalliy miqyosdagi masalalarni hal qilishda ishtirok etishi uchun monelik qiladi;

➤ O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarini, maktab, o'rta va oliy ta'lim muassasalarini qamrab olgan gender ta'lim tizimining to'la yo'lga qo'yilmaganligi xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni borasida eskirgan aqidalarning yoshlar ongida ham saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda;

➤ siyosiy partiyalar, xotin-qizlarning nohukumat tashkilotlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan parlament va hukumatda rahbarlik lavozimlarida ishlay oladigan ilmiy, aql-zakovatli, qobiliyatli xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlaydigan mexanizm va vositalarning ishlab chiqilmaganligi;

➤ davlat organlari, nodavlat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, nodavlat iqtisodiy tuzilmalar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rahbarlarining gender tengligi masalalariga doir zarur bilimga ega emasligi ham xotin-qizlarning rahbarlik lavozimlariga kam o'tishining sabablaridandir;

➤ Xorijiy davlatlar amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, konstitutsiyaviy me'yorlarni amalga oshirish davomida jinsiy farqlash

kuzatiladi. Odatiy, nohuquqiy tushunchalar ko‘pincha xotin-qizlar va erkaklarning tengligi tamoyilini inkor etadi. Afsuski, O‘zbekistonda ham gender tengligi tamoyili jamiyat huquqiy madaniyatining bir qismiga aylanganicha yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. RAHBARIY ADABIYOTLAR:

1.1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.3. -Toshkent: O'zbekiston, 1996. - 269 b.

1.2. Karimov I.A. Adolat-qonun ustuvorligida. Asarlar to'plami. T.9. - Toshkent: O'zbekiston, 2001. - 321 b.

1.3. Karimov I.A. Konstitutsiya-yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy asosi. T.12. - Toshkent: O'zbekiston, 2003. - 400 b.

1.4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.13. -Toshkent: O'zbekiston, 2005. - 448 b.

1.5. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14. - Toshkent: O'zbekiston, 2005. - 280 b.

1.6. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. - T.: O'zbekiston, 2007.

1.7. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. - T.: O'zbekiston, 2008.

1.8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston, 2011. *Karimov I.A.* Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish: 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza (2013 yil 19 yanvar) // O'zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy veb sayti: www.gov.uz

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

2.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014. – B. 7.

2.2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2001.

2.3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: Adolat, 2004.

2.4. Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushtikdan foydalanilishiga qarshi kurash to'g'risidagi konventsiyaga va yakunlovchi bayonnomaga qo'shilish haqida. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori.// O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami, 2004. 1-2 sonlar.

III. Darslik va o'quv qo'llanmalari

1. Mustafoev B. Konstitutsiyaviy huquq: Ensiklopedik lug'at. – T., 2006. – B. 329.

2. Mualliflar jamoasi, IIV Akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. -T.: Akademiya, 2014.

3. Mualliflar jamoasi, O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarining ta'minlanishining tashkiliy-huquqiy asoslari.-T., 2008

4. M.Inagamova. Ayol huquqlarining shakllanishi.-T., Akademiya, 2012

5. Qayumov. R. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. – T.: «Adolat», 1998. – B. 181.

6. Qodirov R.H. Inson manfaatlari yo'lida // O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining rasmiy veb-sayti: www.genproc.gov.uz. – 2007. – 10 dek.

7. «Keksalarni e'zozlash» yiliga bag'ishlangan «Jamiyatning rivojlanishida xotin-qizlarning tutgan o'rni» mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. To'plam. Nukus. Qoraqalpog'iston-2015.

IV. Elektron (Internet) manbalar (WWW)

4.1. <http://www.lawlib.uz>.

4.2. www.ziyonet.uz

4.3. [http:// www.toktom.kg](http://www.toktom.kg).

4.4. <http://www.prof.msu.ru>

4.5. <http://ncpi.gow.by>

4.6. [http:// 2001.novaya_gazeta.ru](http://2001.novaya_gazeta.ru).

4.7. <http://dv.projectharmony.ru>.

4.8. www.gov.uz

